

23.3(54)

Б 99

ТОШМУРОД БҮРИЕВ

# КЛАССИК ШЕЪР ЎЛЧОВИ



FF0000016026



83.3. (593)  
Б.99

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ  
ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ**

*Тошмурод Бўриев*

**КЛАССИК ШЕЪР ЎЛЧОВИ**  
(*ўқув қўлланма*)

5141100 Ўзбек тили ва адабиёти

ALISHER NAVOYI NOMIDAGI  
**ToshDO'TAU** 626  
AXBOROT-RESURS MARKAZI

*011926/7*

ТОШКЕНТ - 2008

Mazkur o'quv qo'llanmada aruz she'r o'lchovining muhim xususiyatlari – tizimlilik, vazn Hosil qilishdagi muhim aruziy Hodisalar, «Hijo»larning xususiyatlari, «juzv»lar va ularning birikish xususiyatlari, «ruknlar», ruknlarning Hosil bo'lishi va turlari, «baHr»lar, baHrlarning turlari, ziHof va tarmoq ruknlar, ularning Hosil bo'lish usullari va qisman ruboiy vaznlari Haqida so'z yuritiladi. Keltirilgan misollar turli baHrlarga xos vaznlarni qanday aniqlash va qaysi vazn nimadan qanday kelib chiqqanligini asosli o'rganishiga yaqindan yordam beradi.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari va barcha qiziqib o'rganuvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muHarrir: filologiya fanlari doktori, professor  
Hamidjon Homidov

Taqrizchilar:

1. O'z.R.FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot  
Instituti kata ilmiy xodimi f.f.n. Q. Ergashev
2. Respublika nafis san'at litseyi o'qituvchisi,  
f.f.n. X. Ahmedov.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi o'quv – metodik birlashmalari muvofiqlashtiruvchi kengashining 16.06.2007 yil 1 son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## Muqaddima

«Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning Haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvofaqiyatli ravishda olfa siljishida Hal qiluvchi, ta'biri joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir»<sup>1</sup>. Ma'naviy barkamollik, yuksak tafakkur, falsafa, eng ezgu foyalar, tashbeHli tafakkur tarzi, teran badiiy idrok ming yillik tarixga ega bo'lgan bezavol ma'naviyatimizning barkamol xazinalaridan biri mumtoz she'riyatimizda mujassamdir. Asrlar davomida shakl va mazmun jiHatidan beqiyos taraqqiy etgan, jaHon mumtoz adabiyoti xazinasini yangi kashfiyotlar bilan boyitgan Sharq she'riyati ayni paytda o'zining boy nazariy zaHirasiga Ham ega. Bu nazariy bilimlar uch mustaqil soHani o'zida qamraydi: ilmi qofiya – qofiya qonun-qoidalari Haqidagi ilm, ilmi bade' – fikrni ravon, nafis ifodalash yo'llari, vositalari Haqidagi ilm. Shulardan yana biri ilmi aruz – she'rdagi vazn va ularning qonun – qoidalari Haqidagi ilm Hisoblanadi. «Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak foyaviylik va etuk badiiyatdan atroflicha baHramand bo'lmoq, Har bir ijodkor qalamining badiiy saloHiyatini anglab etmoq, she'rlarga xos nafis oHanglarni Ham, so'z san'atining betakror nazokatu latofatini Ham His etmoq uchun ushbu bezavol obidalarga asos bo'lgan aruz sheriyy o'lchov tizimining nazariy qonun-qoidalari va amaliy xususiyatlaridan atroflicha xabardor bo'lmoq talab etiladi»<sup>2</sup>. Shunga ko'ra aruz ilmi o'tmishda maktab va madrasalarda maxsus ilm sifatida muttasil o'rgatilib kelingan. Mustaqillik sharofati bilan davlatimiz ta'lim soHasida «Ta'lim to'grisida» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Davlat ta'lim standartlari»ga asoslanib mamlakatimizda amalga oshirayotgan isloHotlar qator imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda.



<sup>1</sup> И.А.Каримов Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т. «Ўзбекистон» 1995.139 б.

<sup>2</sup> А.Ҳожиаҳмедов. Ўзбек арузи луғати. Т. «Шарқ» 1998 й. 3-бет.

Jumladan, «Aruz ilmi» ni fan sifatida o'quv dasturlariga kiritilishi va o'qitilishi shu imkoniyatlar natijasidir. Fan yangi bo'lganligi sabab darslik va o'quv qo'llanmalarga ehtiyojning bo'lishi tabiiy. Ushbu o'quv qo'llanma ana shu ehtiyojni oz bo'lsada tyaldirishni nazarda tutadi. Uni yaratishda Boburning «Muxtasar»,(1971) Navoiyning «Mezon ul avzon», (1967) Anvar HojiaHmedovning «O'zbek aruzi luFati» (1998) kitoblaridan asosiy manba sifatida foydalanildi, misollarning aksariyati ana shu manbalardan olingan.

Aruz ilmi Ham barcha fanlar singari o'ziga xos murakkabliklarga ega, uni to'fridan – to'fri, tez orada, butunasicha o'rganib olish qiyin albatta. Shu sabab bilim va ko'nikma Hosil qilish uchun zarur deb Hisoblangan jiHatlar – aruz she'r o'lchovining paydo bo'lishi, nazariy asoslari va eng muHim xususiyatlari, jumladan «Hijo», «juzv», «ayrim aruziy Hodisalar», «rukn», «baHr»lar Hamda qisman ruboiy vaznlari qamrab olindi. O'rganish oson bo'lishligi uchun ayrim o'rinlarda takrorga Ham qisman yo'l qo'yildi. Aruz she'r o'lchovidagi eng zarur va murakkab jarayon ziHof o'zgarishlar bilan bo'fliq jiHatlariga ko'piroq e'tibor qaratildi. She'riyatimizda nisbatan ko'p qo'llanilib kelingan baHrlarning ziHof o'zgarishlari misollar asosida berildi va ziHof o'zgarishlarni yodda saqlab qolishga oson bo'lsin uchun tartibi bilan umumlashtirildi.

Shu o'rinda aytmoqchi bo'lganimiz yana bir fikrki, aruz she'r o'lchovining xususiyatlaridan kelib chiqilib ba'zan o'rganish qiyin degan xulosalarga Ham kelinadi. DarHaqiqat, aruz ilmi chindan Ham murakkab, ammo o'rganishdan xorij emas. Qolaversa, o'rganib kelishgan va o'rgansa bo'ladi.

Mazkur o'quv qo'llanma muallifning bu boradagi ilk urinishi sifatida keng kitobxonlar Hukmiga Havola qilinmoqda.



Mavzu: Aruz she'r o'lchovining muHim nazariy asoslari.

Reja

1. Arab adabiyotida aruz she'r o'lchovining paydo bo'lishi, forsiy va turkiy adabiyotga kirib kelishi.
2. Forsiy va turkiy adabiyotda aruzshunoslik ilmining paydo bo'lishi.
3. Aruz tizimidagi ayrim asosiy birliklar.

1. Arab adabiyotida aruz she'r o'lchovining paydo bo'lishi, forsiy va turkiy adabiyotga kirib kelishi.

Inson nutqining o'ziga xos o'lchangan ko'rinishi she'riyatni yuzaga keltiruvchi omillardan biridir. Ammo, Har qanday o'lchov she'riyat uchun mezon bo'lavermaydi. She'riyat uchun asrlar davomida to'plangan ijodiy tajribalar asosida shakllangan o'ziga xos me'yor – mezonlar mavjud. Hozirda ular ikki yirik she'riy sistemani tashkil qiladi. Biri «Barmoq she'r sistemasi» bo'lsa, ikkinchisi «Aruz she'r sistemasi» bo'lib, Sharqda, xususan klassik she'riyatimizda asosiy she'riy mezonlar vazifasini o'tagan. «Barmoq she'r sistemasi» turkiy xalqlar she'riyati uchun xos, xalq o'fzaki ijodida paydo bo'lgan va she'riy mezon sifatida shakllangan. Misralaridagi bo'finlarning soni barmoq bilan sanab o'lchangani uchun shunday nom olgan. Bunda «bo'fin», «turoq», «bosh turoq» asosiy birliklar Hisoblanadi.

Bo'fin – ritm Hosil qiluvchi va misralar tengligini ta'minlovchi birlik Hisoblanadi.

Turoq – misralarda bo'finlarning kichik pauza orqali guruHlanib kelishi.

Bosh turoq – turoqlardan birini boshqasiga nisbatan yuqoriroq o'Hangda bo'lishiga aytiladi. Misollarga murajaat etamiz:

6	5	
Yi-git-lar mak-tu-bin G' bit-gan-da qon-dan, G' G' q 11.		

6	5	
Ke-lin-lar fi-roq-dan G' chek-kan-da yo-Hu, G' G' q 11.		

6	5	
U-ning Ham pa-no-Hi G' qayt-ma-di jang-dan, G' G' q 11.		

6	5	
O'n to'q-qiz yo-shi-da G' be-va qol-di u. G' G' q11.		

Ko'rinadiki, misralarda bo'rinlarning soni bir xil 11 taga teng. Bu she'rda o'ziga xos ritmi yuzaga keltiradi. Turoqlar soni 2 ta bo'lib, birinchisi turoq 6ta, ikkinchisi 5ta bo'findan tashkil topgan. Shu Holat she'rning keyingi misralarida Ham saqlanadi. Aks Holda she'rning vazni va o'hangiga putur etadi. Ikkinchi turoq bosh turoq Hisoblanadi, chunki asosiy mazmun ustivorligi shu so'zlarga jamlangan bo'lib, kuchliroq talaffuzni talab etadi.

Aruz she'r sistemasi batamom o'zgacha manzara kasb etadi. U barmoqqa nisbatan ancha mukammal va murakkab. Bu she'riy sistema dastlab arab adabiyotida paydo bo'ladi. Manbalarda, xususan Navoiyning «Mezon ul avzon» asarida VIII asrda yashab ijod etgan arab adabiyotshunoslaridan biri Xalil ibn AHmad tomonidan asos solinganligi aytiladi: «Xalil ibn AHmad raHmatulloHki, bu fanning voizi (aytuvchi)dur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani «Aruz» derlar ermish va ul vodiyda a'rob uylarini tikib, jilva berib, baHoga kiyururlar ermish. Va uyni arab «bayt»der. Chun baytlarni bu Fan bila mezon qilib, mavzunini nomavzunidin ayururlar, go'yoki qiymat va baHosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila «aruz» debdurlar».<sup>1</sup>

## 2. Forsiy va turkiy adabiyotda aruzshunoslik ilmining paydo bo'lishi.

Aruz she'r o'lchovi IX asrning boshlaridan fors-ojik adabiyotida qo'llanila boshlangan. Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, Savajiy, keyinroq Xayyom, Sa'diy, Hofiz va boshqalar ijodidan mustaHkam o'rin olgan. Turkiy tilda yaratilgan «QutadFul bilig», «Hibatul Haqoyiq» asarlarining shu vaznda yaratilganligi Aruz she'r o'lchovi XI asrdan turkiy she'riyatga Ham ko'chganligini ko'rsadi. Masalan, «Hibatul Haqoyiq» dan olingan quyidagi bayt aruzning «mutaqoribi musammani maHzuf» vaznida ekanligi asar aruz vaznida yaratilganligini ko'rsatadi:

Ba-Ho-liq di-nar-ul bi-lik-lik ki-shi,  
V - - V - - V - - V -  
Bu-jo-Hil bi-lik-siz ba-Ho-siz bi-shi.  
V - - V - - V - - V -

<sup>1</sup> А.Навоий. Асарлар. 15 томлик, 14-том. Ф.Фулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т. 1967. 137-бет.



fa-u-lun      fa-u-lun      fa-u-lun      fa-al

Keyinchalik Rabi'oziy, Xorazmiy, Badriddin Chochiy, Sayfi Saroiy, Qutb Xorazmiy singarilar ijodidan Ham o'rin olib, tobora kengroq kirib borganligi kuzatiladi. XV asr turkiy aruz rivojida alohida bosqichni tashkil etadi. Sababi, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy singari turkigo'y ijodkorlar ijodidan mustahkam o'rin olib sayqal topdi.

Aruz tizimi Ham davrlar o'tishi bilan arab, fors-tojik va turkiy she'riyatda birdek qo'llanilish barobarida ilmiy – nazariy jihatdan takomillashib bordi, maxsus ilm sifatida shakllandi, maktab va madrasalarda o'rgatildi, ilmiy tadqiqotlar qilindi, risolalar bitildi. Xalil ibn Ahmadan keyin bir qator arab olimlari bu ilmning taraqqiyotiga Hissa qo'shgan bo'lsalar, fors-tojik adabiyotida Yusuf Nishoburiy (X asr), Rashididdin Votvot (XIII asr) «Hadoyiq us sehr», Shams Qays (XIII asr) «Al-mu'jam fi me'yor ash'or al-ajam», Nasriddin Tusiy (XIV asr) «Me'yor ul-ash'or», Salmon Savajiy (XIV asr) «Qasidatun masnuot al-aruz», Jomiy (XV asr) «Risolai aruz» asarlarini yaratdi va fors-tojik aruzining takomili va taraqqiyotiga Hissa qo'shdilar.

Turkiy aruz esa Alisher Navoiy ijodi orqali sinovdan o'tdi va ilmiy – nazariy tasdiqini topdi. «Mezon ul – avzon» turkiy aruzning nazariy asoslariga barcha ishlab yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar Hisoblanadi. «Mezon ul-avzon»da Navoiy «...turkiy alfozda dast muloHazani lozim ko'ruildi – olame nazarida keldi, o'nsakkiz ming olamdin ortuq anda zeb va ziynat ...» der ekan yozadi: «Chun turk alfoz (lafz,so'z) bilakim nazm voqe' bo'lubtur anga zobitae(qoida,tartib) va qonun yo'q erkondur va ul fan rivoji uchun kasse(kishi) aruz fanida kitobe yo risolae bitolmaydur... va bu sababdin bu ilm zobitasi qalam suruldi»<sup>1</sup> deydi. Keyinchalik aruz ilmiga barcha ishlangan bir qator ilmiy – nazariy asarlar yaratildi va yaratilmoqda. Boburning «Mufassal» (Muxtasar), Furqatning «Risolai aruz», (Anvar HojiaHmedov ushbu risola Haqida F. Karimov Ostroumov fondidan

---

<sup>1</sup> А.Навоий. Асарлар. 15 томлик,14-том.Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Т. 1967.137-бет.



topganligini, ammo nashr qilinmaganligini aytadi)<sup>2</sup>. Fitratning «Aruz Haqida risola» (1936), A. Rustomovning «Aruz Xaqida suHbatlar» (1972), U.To'ychievning «O'zbek poeziyasida aruz sistemasi» (1985), A.HojiaHmedovning «Maktabda aruz vaznini o'rganish» (1995), «Aruz nazariyasi asoslari» (1982), «O'zbek aruzi luFati» (1998) A. A'zamovning «Aruz» (2002) asarlari shu jumladandir.

### 3. Aruz tizimidagi ayrim asosiy birliklar.

DarHaqiqat aruz vazni murakkab xususiyatlarga ega. Uni o'rganish uchun avvalo arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvini bilish, kuchli xotira quvvatiga ega bo'lish, Hamda soddadan murakkabga tomon poFonama-poFona o'rganib borish va esda saqlash orqali o'zlashtirish talab etiladi. Quyidagi tartib aruz vazniga xos tizim Hisoblanadi va o'rganishda unga amal qilishni taqozo etadi:

➤ Eng kichik boshlanFich birlik sokin va mutaHarrik Harflardir. (Bu arab grafikasiga asoslangan yozuvli asarlarga xos bo'lib, Hozirgi o'zbek aruzida Harflar o'rnida eng kichik birlik sifatida «Hijo» olinadi.)

➤ Harflar (Hijo)larning birikuvidan «sabab», «vatad», «fosila» deb ataluvchi yirikroq bo'lak keltirib chiqariladi, ular qism, bo'lak ma'nosida «juzv»lar deb ataladi.

➤ Juzvlarning o'zoro birikuvidan «rukn» kelib chiqadi. Dastlab Hosil qilingan ruknlar 8 ta bo'lib, «asllar» deb yuritiladi.

➤ Ruknlarning baytda turlicha takrorlanishidan asosiy o'lchov «baHr»lar yuzaga keladi.

➤ Asl ruknlarning baytda takrorlanishi jarayonidagi o'zgarishlar natijasida «ziHof» yoki «fur u'»lar Hosil qilinadi.

➤ BaHrlar tarkibida Hijolar sonining tengligi Hamda yaqin oHangga ega bo'lishiga qarab guruHlanadi va ular «ar uz doir alari» deb yuritiladi.

---

<sup>2</sup> A.Хожиахмедов.Мактабда аруз вазнини ўрганиш. Т. «Ўқитувчи» 1995.8-бет.

Aruz vazniga xos muHim xususiyatlardan yana biri vazn talabiga ko'ra yuzaga keladigan o'zgaruvchanlikdir. Ularga vazn talabi bilan yuzaga keladigan muHim aruziy Hodisalar sifatida qaraladi:

1. Vasl – (arabcha – ulanish ) cho'ziq Hijo oxiridagi tovushning keyingi Hijoning oldiga o'tishi.

Masalan, SuH-bat-ay-lay-lik -SuH-ba-tay-lay-lik.

Bu-gul-shan-ich-ra - Bu-gul-sha-nich-ra.

2. Taslim – (arabcha - emirmak) vazn talabiga ko'ra biror Harfni tushirilishi Hodisasi.

Masalan, Sakkiz - sakiz, suv - su, yuvdi - yudi, qilFaysen - qilFasen.

3. Taznib – (arabcha - dum yasamoq) vazn talabiga ko'ra biror Harfni orttirilishidir.

Masalan, Ayt - ayit, ufq - ufuq, umid - ummid, xumor - xummor.

4. Tafyir – (arabcha - o'zgartirish) so'zlardagi ayrim tovushlarning vazn talabiga ko'ra o'rnini almashtirish Hodisasi.

Masalan, diliston - dilsiton, guliston - gulsiton.

Bu Hodisalarga oddiy tovush ko'chishi, tushishi yoki orttirilishi deb qaramaslik kerak. Ularni bilmaslik aruz vaznida yozilgan she'rlarning vaznini aniqlashda qiyinchiliklar tuFdiradi. Chunki, bunday Hodisalarsiz ba'zan vazn ro'yobga chiqmaydi, Hamda bir tovushning ko'chishi, orttirilishi va tushirilishi natijasida butun boshli bir vazn boshqa vaznga o'zgarib ketadi. Misol uchun olaylik, SuH-bat-tay-lay – bu ko'rinishda ushbu so'z Hech bir vaznga to'gri kelmaydi, vaznsiz, ana shunday paytlarda bu «vasl» Hodisasi orqali o'lchamga solinadi. Natijada, SuH-ba-tay-lay ( lik-ke-ling-lar jo'-ra-lar-o'r to-F-lar) shaklida o'zgartiriladi.(fo-i-lo-tun fo-i-lun). Shuningdek, sak-kiz so'zidagi bir cho'ziq sakiz so'zida qisqaga, umid so'zidagi qisqa Hijo um-mid shaklida cho'ziqqa aylanadi va yangi vazn Hosil qiladi. Bulardan ko'rinadiki, aruz vaznini o'rganishda aruziy Hodisalarni bilish juda zarur Hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

1. Ilmi aruz – aruz vazni Haqidagi ilm.
2. Ilmi bade' – badiiy tasvir vositalari Haqidagi ilm.
3. Ilmi sanoe' – she'riy san'atlar
4. Ilmi qofiya – qofiya Haqidagi ilm.

Savollar:

1. She'riyat va vazn tushunchalari munosabatlari Haqida qanday fikrdasiz?
2. Aruz she'r o'lchovi»ning tarixi Haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbek aruzshunosligi borasida nimalarni bilasiz?
4. Aruz vazni tizimidagi asosiy birliklar tartibi qanday?
5. Vazn talabiga ko'ra yuz beradigan aruziy Hodisalar nima?



**Mavzu:** Hijo va juzvlarning xarakter xususiyatlari.

Reja

1. Bo'fin va Hijolarning ajratilishiga ko'ra o'xshash va farqli jihatlari.
2. Hijolar va ularning turlari.
3. Hijolarning birikish xususiyatlari.
4. Juzvlar va ularning turlari.

1. Bo'fin va Hijolarning ajratilishiga ko'ra o'xshash va farqli jihatlari.

She'riyatning muhim xususiyatlaridan biri bu ritm, ya'ni o'hangga ega bo'lishlikdir. O'hang unli va undosh tovushlarning tartibli takrorlanishi orqali hosil qilinadi. Vazn nuqtai nazaridan eng kichik ritmik bo'lak barmoq vaznida «bo'fin», aruz vaznida «Hijo» deb yuritiladi. Tuzilishiga ko'ra ular bir-biriga o'xshasada xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Xususan, barmoq vaznida bo'finlar ifodalanishiga ko'ra ajratiladi va asosan sano'i hisobga olinadi. Hijolar esa

talaffuziga ko'ra ajratiladi va sifat jiHati Hisobga olinadi. Yakka undosh tovush bo'fin Hisoblanmaydi, ammo bir qisqa Hijo o'rnida kelishi yoki qisqa unli talaffuzga ko'ra cho'ziq Hijo Hisoblanishi mumkin. Shu jiHatdan Hijolar Hamisha Ham bo'finga teng kelavermaydi. Masalan, Boburning bir baytini bo'fin Hamda Hijo xususiyatiga ko'ra qiyoslab ko'ramiz:

Bo'fin: Qa-ro-zul-fing-fi-ro-qi-da-pa-ri-shon-ro'z-go-rim bor, q 15

Yu-zing-ning-ish-ti-yo-qin-da-ne-sab-ru-ne-ka-ro-rim bor.q 16

Hijo: Qa-ro-zul-fing-fi-ro-qi-da-pa-ri-shon-ro'-z-go-rim bor,q16

Yu-zing-ning-ish-ti-yo-qin-da-ne-sab-ru-ne-ka-ro-rim bor.q16

Ko'rinadiki, Har ikki baytda bo'fin va Hijolar soni teng emas, ikkinchi baytning birinchi misrasida «z» undoshining bir qisqa Hijo sifatida ajratilishi Hisobiga Hijolar soni bittaga ortgan. Hijolar sifat xususiyatiga ko'ra xarakterlanar ekan, ularning aynan ana shu sifat jiHati o'quvchi ilfab olishi anchayin qiyin bo'lgan xususiyatlardan biri Hisoblanadi. Sababi, o'quvchi qisqa unli bilan tugagan Hijolarga bo'fin nuqtai nazaridan Hamisha qisqa deb qaraydi va xatoga yo'l qo'yadi. Yuqorida keltirilgan misolda «qa», «da», «pa», «ri» «fi», «qi», «ti» kabi o'rinlarga bir xil munosabatda bo'ladi. DarHaqiqat, bo'fin Hisobida olganda ular bir xil. Ammo, Hijo nazaridan talaffuzga ko'ra ular bir xilda emas. «qa», «qi», «pa», «ti» Hijolari qisqa unli bilan tugagani uchungina emas, qisqa talaffuz qilingani uchun qisqa Hisoblanadi. «qi», «da», «ri» Hijolari oldingi Hijolarga o'xshash qisqa unli bilan tugasada «qi-y», «ri-y», «da-a» ko'rinishida cho'ziq talaffuz qilingani uchun cho'ziq Hisoblanadi. Demakki, baytlarni Hijolarga ajratishda qayta-qayta talaffuz qilib ko'rish kerak bo'ladi.

## 2. Hijo va ularning turlari.

Hijolar talaffuziga ko'ra qisqa Hijo, cho'ziq Hijo, yata cho'ziq Hijolardan iborat uchta turga bo'linadi:

➤ Agar Hijo qisqa unli bilan tugasa Hamda qisqa talaffuz qilinsa – ochiq va qisqa Hijo deyiladi, « V » belgisi bilan belgilanadi.

➤ Agar Hijo qisqa unli bilan tugasada cho'ziq talaffuz qilinsa, Hamda tarkibida qisqa unli bo'lgan undosh bilan tugagan yopiq Hijolar cho'ziq Hijolar deyiladi va « – » belgisi bilan belgilanadi.

➤ Tarkibida cho'ziq unlisi bo'lgan yoki qo'sh undosh bilan tugagan Hijolar o'ta cho'ziq Hisoblanadi. (bor, zor, do'st, raHm). So'z boshida « – V » belgisi bilan, so'z oxirida kelganda esa « ~ » belgisi bilan belgilanadi. Masalan, quyidagi baytga e'tibor qilinsa qisqa Hijolar 8 ta, cho'ziq 20 ta, o'ta cho'ziq 3 ta ekanligi ko'rinadi:

So'r-ma-Ho-lim ni-ki,-bo'l-dum bur-no-fi-din zo-r-roq,  
 – V – – – V – – – V – – – V ~  
 Jism-jon-din zo-ru-jo-nim jism-din-af go-r-roq.  
 – V – – – V – – – V – – – V ~  
 fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lon

Bunda «ma, ki, ru» Hijolari qisqa unli bilan tugagani va qisqa talaffuzga egaligi uchun qisqa (talaffuz qilinganda «i» tovushi deyarli aytilmaydi), «no» Hijosi cho'ziq unli bilan tugasada qisqa talaffuz etiladi va qisqa Hijo Hisoblanadi, «ni» qisqa unli bilan tugasada «ni-y» shaklida cho'ziq talaffuz qilinayotganligi uchun cho'ziq Hisoblanadi. «r» undoshi Har ikki o'rinda bir qisqa Hijoga teng(undoshlar yakka Holda kelganda Hamisha bir qisqa Hijoga teng deb qaraladi). «Jism» so'zi qo'sh undosh bilan tugagani, «roq» tarkibida «o» cho'ziq unlisi bo'lgani uchun o'ta cho'ziq Hijo Hisoblanadi. Qolgan Hijolar esa tarkibida qisqa unlisi bor, undosh bilan tugagan yopiq Hijo ekanligidan cho'ziqdir. Talaffuzga asoslangan Hijolarga xos bunday xususiyatlar o'ta muHim bo'lib, ba'zan bir baytning o'zini Hijolarning turlicha talaffuziga ko'ra bir necha vaznda o'qish mumkin. Aynan Hijolarga xos ushbu jiHat she'riyatdagi vaznlar rang – barangligiga asos bo'lib xizmat qilgan. Boburning quyidagi bir baytiga e'tibor qaratamiz:

Qo-shi-fa bor fa-li ko'-ngul o'-zi-ga kel ma-di ne-tay,  
 – V – – – V – – – V – – – V – –  
 Yu-zi-ga tush ga-li ko'-zum ko'-zi-ga il ma-di u-loy.  
 – V – – – V – – – V – – – V – –  
 fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun

Ushbu bayt vazni uch cho'ziq va bir qisqa Hijodan tashkil topgan «fo-i-lo-tun» ruknining takroridan Hosil bo'lgan «Ramali musammani solim» dir. Shu baytning o'zi quyida boshqa vazn ko'rinishiga ega:

Qo-shi- <del>fa</del> bor	<del>fa</del> -li ko'-ngul	o'-zi-ga kel	ma-di ne-tay,
V V - -	V V - -	V V - -	V V - -
Yu-zi-ga tush	ga-li ko'-zum	ko'-zi-ga il	ma-di ne-tay.
V V - -	V V - -	V V - -	V V - -
fa-i-lo-tun	fa-i-lo-tun	fa-i-lo-tun	fa-i-lo-tun

Ko'rinadiki, barcha ruknlarda birinchi cho'ziq Hijolar qisqaga o'zgargan, ya'ni qisqa talaffuz qilinmoqda. Aruz tilida bunday o'zgarish «xabn – qisqa qilish» deyiladi. Natijada, «Ramali musammani solim» (Ramal baHridagi sakkizlik butun) vazni o'rnida «Ramali musammani maxbun» (Ramal baHridagi qisqargan sakkizlik) deb ataluvchi yangi vazn yuzaga kelgan.

Esada tutish lozimki, vaznda talaffuzga ko'ra bo'ladigan bunday o'zgarishlar bir baHr doirasida yoki ichida emas, bir baHrga mansub (masalan, Ramal) she'rning vaznini boshqa baHrga ko'chirib, o'zgartirib yuborishi mumkin:

Qo-shi- <del>fa</del> bor	<del>fa</del> -li ko'-ngul	o'-zi-ga kel	ma-di ne-tay,
V - - -	- V - -	V - - -	- V - -
Yu-zi-ga tush	ga-li ko'-zum	ko'-zi-ga il	ma-di ne-tay.
V - - -	- V - -	V - - -	- V - -
Ma-fo-iy-lun	fo-i-lo-tun	Ma-fo-iy-lun	fo-i-lo-tun

Bu bayt Ham yuqoridagi baytning o'zi, ammo boshqa vaznga ega. Birinchi ikki (qoraytirilgan) rukn Hamda o'rtadagi uchinchi ikki (qoraytirilgan) ruknni oldingi baytdagiga solishtirsak o'zgarganini ko'ramiz. Aruz tilida aytganimizda «fo-i-lo-tun» o'rnida «ma-fo-iy-lun» kelmoqda. Endi bu baytning vazni oldingi baytlardagi singari Ramal baHri vazni «Ramali musammani solim yoki maxbun»da emas, «Muzorei musammani solim» - boshqa bir baHrga batamom o'zgargan. Vazndagi bunday o'zgarishlar Hijolarning turlicha talaffuzi asosida yuzaga kelmoqda.

Hijolarni qisqa yoki cho'zib talaffuz qilinishi bunday o'zgarishga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun Hijolarning talaffuzi jiddiy mashqni talab qiladi.

### 3. Hijolarning birikish xususiyatlari.

Vazn Hosil qilishda Hijolarning sifati qay darajada muHim bo'lsa, ularning o'zoro birikish Hususiyatlari Ham muHim aHamiyat kasb etadi. Chunki, she'r ritmi uchun Hijolarning sifat xususiyatlarining o'zi kifoya qilmayd. Ritm uchun Hijolarning guruHlanishi talab etiladi. Buning uchun esa avvalo Hijolar o'zoro birikishini tashkil qilish kerak. DarHaqiqat, qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq Hijolar o'zoro birikadi va nisbatan yirikroq birlik «juzv» larni Hosil qiladi, sabab, vatad, fosila degan nomlar bilan ataladi. Hijolarning o'zoro birikuvi uch kurinishda amalga oshiriladi:

1. Sabab juzvi – bir qisqa va ikki cho'ziq Hijodan iborat bo'ladi.

➤ Juzv bir chuziq Hijodan iborat bo'lsa, «sababi Hafif-engil sabab» ( – ).

Masalan: gul, tun, kun.

➤ Ikki qisqa Hijodan tashkil topgan bo'lsa «sababi saqiyl – ofir sabab» deyiladi ( VV ). Masalan: ga-la, ke-cha ne-cha.

V V V V V V

2. Vatad juzvi - so'zi arabcha «qoziqcha» degan ma'noni anglatadi, qisqa va cho'ziq Hijolarning o'zoro birikishida Hosil bo'ladi.

➤ Agar cho'ziq Hijo o'zidan oldin kelgan qisqa Hijo bilan birikkan bo'lsa, «vatadi majmu'» - qo'shilgan vatad Hisoblanadi ( V – ).

Masalan: ki – tob, va – fo, ba – Hor.  
V – V – V –

➤ Cho'ziq Hijo o'zidan keyin kelgan qisqa Hijo bilan biriksa, «vatadi mafruq» - ajratilgan vatad deyiladi. ( – V ).

Masalan: no-la, bor-la, say-ri  
– V – V – V



➤ Bir qisqa Hijo o'zidan keyin kelgan o'ta cho'ziq Hijo bilan birikkan bo'lsa «vatadi kasrat»- keng, mo'l vatad bo'ladi ( V ~ ).

Masalan: ni-shon, ni-Hon, ra-voq.

V V V ~

3. Fosila juzvi – uch yoki to'rt qisqa va bir cho'ziq Hijolarning kelishidan tarkib topadi.

➤ Ikki qisqa Hijodan so'ng bir cho'ziq Hijo kelsa «fosilai su<sub>F</sub>ro» - kichik fosila, ( VV – ).

Masalan: ne-qi-lay.

V V –

➤ Uchqisqa Hijodan keyin bir cho'ziq Hijo biriksa «fosilai qubro» - katta fosila deyiladi (VVV – ). Masalan: ne-qi-la-yin.

V V V –

Bobur «Muxtasar» «sababi mutavassit», «fosilai uzmo» juzvlari Ham borligini, ammo ba'zi manbalarda ularga aloHida qaralmasligini aytadi.

Juzvlarni bilishning aHamiyati shundaki, ular orqali ruknlarning tarkibi bilish va qaysi rukn nimadan kelib chiqqanini aniqlash imkonini beradi.

Juzlarning umumiy ko'rinishi:

– sababi Hafif V – vatadi majmu' V V – fosilai su<sub>F</sub>ro.

V V sababi saqiyl – V vatadi mafruq V V V – fosilai qubro.

Tayanch tushunchalar:

- |                   |                      |                                 |
|-------------------|----------------------|---------------------------------|
| 1. Hijo – bo'fin. | 4. Vatad – qoziqcha. | 7. Su <sub>F</sub> ro – kichik. |
| 2. Ritm – oHang.  | 5. Xafif – engil.    | 8. Kubro – katta.               |
| 3. Juzv – qism.   | 6. Saqiyl – ofir.    | 9. Uzmo-uzaytirilgan            |

Savollar:

1. «Bo'fin» va «Hijo» munisabatlari Haqida nima deya olasiz?
2. Hijolar qanday xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi?
3. Juzvlar nimani anglatadi?
4. Juzvlar qanday nomlar bilan ataladi.



## Mavzu: Ruknlar, ularning Hosil bo'lishi va turlari

### Reja

1. Ruknlarni Hosil qilish yo'llari.
2. Asl ruknlar.
3. Bayt vaznini aniqlashda taqte'lashning muHimligi.
4. Ruknlarning baytdagi o'rniga ko'ra nomlanishi.
5. Yakka takrorlanuvchi ruknlar.
6. Qo'shaloq takrorlanuvchi ruknlar.

#### 1. Ruknlarni Hosil qilish yo'llari.

Rukn — arabcha «ustun» degan ma'noni anglatadi, ko'pligi arkon. Aruz tizimida Hijodan keyingi yirik ritmik bo'lak Hisoblanadi. Aruzida ruknlar juzvlarning birikishidan yuzaga keladi<sup>1</sup>.

1. Bir vatadi majmu'. Q bir sabab.  
V — Q — q «fa u lun». (V — —).
2. Bir sabab Q Bir vatadi majmu'.  
— Q V — q «fo i lun». (— V —).
3. Bir vatadi majmu' Q ikki sabab.  
V — Q — — q «ma fo iy lun» (V — — —).
4. Bir sabab Q vatadi majmu' Q bir sabab.  
— Q V — Q — q «fo i lo tun» (— V — —).

<sup>1</sup> Фитрат рукнларнинг ҳосил бўлишига нисбатан мавжуд ушбу тартибни макул кўрмайди. «Аруз ҳақида» рисоласида «ҳеч қандай илмий лисоний асосга суянмасдан, ҳижолаҳнинг бир бирига қушулишлариға кўра таҳсим этдилар. Бу «Халил мактаби»нинг биринчи янглиши бўлди» дейди. Ҳижолаҳнинг қисқалиқ ва тўлиқлиқ сифатлариға диққат қилиб, шуларнинг тизилиш тартибини назарға олганда масалани жуда тўғри ҳал қилган бўлардилар деган фикрни билдиради. Фитрат. «Аруз ҳақида».Т. «Ўқитувчи» 1997. 31 – бет.

5. Ikki sabab Q bir vatadi majmu'.  
 — — Q V — q «mus taf' i lun» ( — — V — ).
6. Ikki sabab Q bir vatadi mafruq.  
 — — Q — V q «maf' u lo tu» ( — — — V ).
7. Bir vatadi majmu' Q bir fosilai su<sub>FRO</sub>.  
 V — Q V V — q «ma fo i la tun» ( V — V V — ).
8. Bir fosilai su<sub>FRO</sub> Q bir avtvdi majmu'.  
 V V — Q V — q «mu ta fo i lun» ( V V — V — )

## 2. Asl ruknlar.

Yuqorda ko'rganimiz tartibda juzvlarning birikishidan 8 ta rukn Hosil qilinadi va mazkur sakkiz rukn «asllar» deb ataladi. Aruzshunoslikda «Afoiylu tafoiyl» deb Ham yuritiladi. Ana shu 8 ta asllarni quyidagilar tashkil etadi.

	Rukn nomi	Chizmasi		Rukn nomi	Chizmasi
1	Fa u lun	V — —		Mustaf' i lun	— — V —
2	Fo i lun	— V —		Maf' u lo tu	— — — V
3	Mafoiy lun	V — — —		Ma fo i la tun	V — V V —
4.	Fo i lo tun	— V — —		Mu ta fo i lun	V V — V —

O'zbek aruzida ruknlarning ushbu tartibi aynan qabul qilingan bo'lsada, ularni ajratishda Hijolarning talaffuzga ko'ra guruHlanib kelishiga Ham e'tibor qaratiladi. Masalan, Atoiyning quyidagi baytiga e'tibor qaratamiz:

Ey ko'nglim olgan dilrabo jonim fido bo'lsun sanga,

Obi Hayoti Xizr ila umre baqo bo'lsun sanga.

Ushbu baytni talaffuzga qo'ra quyidagicha ritmik bo'laklarga bo'lib o'qish orqali Ham ruknlarga ajratish mumkin:

Ey ko'nglim ol      gandilrabo      jonim fido      bo'lsun sanga,

Obi Hayo              ti Xizr ila      umre baqo      bo'lsun sanga.

Shuni ta'kilash lozimki, baytlarni ushbu shaklda ruknlarga ajratish Hamisha Ham to'fri bo'lavermaydi. Chunki, ruknlarni aniqlash aruz ilmida ma'lum tartib va qoidaga ko'ra aniqlanadi.

### 3. Bayt vaznini aniqlashda taqte'lashning muHimligi.

Aruz ilmida she'r vaznini aniqlash uchun «taqte'» usuli Ham qo'llaniladi. Taqte' – arabcha kesish degan manoni anglatib, baytni ritmik bo'laklar – ruknlarga ajratishni anglatadi. Taqte' usuli ancha murakkab bo'lib, arab grafikasida esa yanada qiyinlashadi. Shuning uchun Hozirgi aruzshunoslikda taqte' usuli emas, Hijo usuli ko'piroq qo'llaniladi. Ya'ni, bayt avval talaffuzga ko'ra Hijolarga ajratiladi, so'ngra ritmik bo'laklarga bo'linadi va Har bir ritmik bo'lakdagi Hijolarning cho'zik – qisqaligi aniqlanadi, belgilanadi, shu tartib asosida vazni aniqlanadi. Quyida bir bayt misolida shu vazifani bajaramiz:

Takalluf Har necha suratta bo'lsa andin ortuqsen,  
Seni jon derlar, ammo betakalluf jondin ortuqsen.

Dastlab, baytni Hijolarga ajratamiz:

Ta-kal-luf-Har-ne-cha-su-rat-ta-bo'l-sa-an-din-or-tuq-sen,  
Se-ni-jon-der-lar,-am-mo-be-ta-kal-luf-jon-din-or-tuq-sen.

Endi ularni talaffuz qilish asosida ritmik bo'laklarga ajratib ifoda etamiz. Shunda bayt quyidagi Holatga keladi:

Ta-kal-luf-Har ne-cha-su-rat ta-bo'l-sa-an din-or-tuq-sen,  
Se-ni-jon-der lar,-am-mo-be ta-kal-luf-jon din-or-tuq-sen.

Har bir ritmik bo'lakdagi Hijolarning qisqa – cho'ziqligini yana talaffuzga ko'ra aniqlashga Harakat qilamiz va belgilaymiz:

Ta-kal-luf-Har	ne-cha-su-rat	ta-bo'l-sa-an	di-nor-tuq-sen,
V - - -	V - - -	V - - -	V - - -
Se-ni-jon-der	la-ram-mo-be	ta-kal-luf-jon	di nor-tuq-sen.
V - - -	V - - -	V - - -	- V - - -
ma-fo-iy lun	ma-fo-iy lun	ma-fo-iy lun	ma-fo-iy lun

Ko'rinadiki, Har bir aloHida rukn yuqorida ko'rganimiz 8 asllardan biri «ma-fo-iy lun» ga to'g'ri kelmoqda va rukn baytda bus-butun takrorlanmoqda. Demak, baytning vazni «Hazaji musammani solim» Hisoblanadi.(Bu Haqda keyinroq batafsil to'xtalamiz).

#### 4. Ruknlarning baytdagi o'rniga ko'ra nomlanishi.

Baytdagi Har bir rukn o'rniga ko'ra o'z nomiga ega bo'lib, ularni bilish muHim aHamiyat kasb etadi. Birinchi misraning birinchi rukni «sadr – rais, boshliq», oxirgi rukni «aruz», ikkinchi misraning birinchi rukni «ibtido – boshlovchi», qolgan o'rtada keluvchi barcha ruknlar «Hashv – ortiqcha so'z, mavzudan chetga chiqib aytilgan gap» deyiladi. Baytda ruknlar soniga qarab Hashvlar bir nechta bo'lishi mumkin:

1.

Sadr aruz

Ibtido zarb

(murabba')

2.

Sadr Hashv aruz

Ibtido Hashv zarb

(musaddas)

3.

Sadr Hashv Hashv aruz

Ibtido Hashv Hashv zarb

(musamman)

#### 5. Baytlarda ruknlarning takrorlanishi.

Aruz vaznida vazn yuzaga kelishi uchun baytlarda ruknlarning takrorlanib kelishi talab etiladi, boshqacha aytganda ruknlar takrorisiz vazn yuzaga kelmaydi. Bu takrorlanish odatda – yakka va qo'shaloq takrorlanadi. Har ikki Holatda aynan va o'zgargan ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqilganda ruknlar ikki xil (yakka va qo'shaloq) va ikki ko'rinish (solim va ziHof) da bo'ladi. Har

to'rt Holatda Ham aloHida yangi vazn Hosil bo'ladi. Quyida bularning Har biriga to'xtalamiz.

Yakka takrorlanuvchi ruknlar.

Yuqordagi misollarda guvoHi bo'lganimizdek, «fa-u-lun», «fo-i-lun», «fa-fo-iy-lun», «fo-i-lo-tun», «fus-taf'-i-lun», «fa-fo-i-la-tun», fu-ta-fo-i-lun» asl ruknlarning Har biriga baytlarda takrorlanib kelish xususiyati xos. Bu takrorlanuvchanlikning birinchi xilida biror rukn yakka o'zi takrorlanadi. Shuning uchun ularni shartli ravishda yakka takrorlanuvchi ruknlar deb atadik. Masalan, quyidagi bir bayt misolida kuzatamiz:

Rashki xurshidi anvar bo'lubtur yuzi,  
Fitnai shaHri kishvar bo'lubtur ko'zi.

Yuqorida aytilgani singari dastlab baytni Hijolarga ajratamiz:

Rash-ki-xur-shi-di-an-var-bo'-lub-tur-yu-zi,  
Fit-na-i-shaH-ri-kish-var-bo'-lub-tur-ko'-zi.

O'z navbatida talaffuz qilib ko'rish bilan ritmik bo'laklarni Hosil etamiz. Bu vazifani bajarishda Har bir ritmik bo'lakning o'Hangi va mazmunga e'tibor qaratish lozim. Chunki ular o'zaro teng o'Hangga ega bo'lishi kerak:

Rash-ki xur shi-di an var bo'-lub tur yu-zi,  
Fit-na-i shaH-ri kish var bo'-lub tur ko'-zi.

Aytilganidek, Har bir ritmik bo'lakdagi Hijolarning sifatini aniqlaymiz va belgilayiz:

Rash-ki xur shi-di an var bo'-lub tur yu-zi,  
- V - - V - - V - - V -  
Fit-na-i shaH-ri kish var bo'-lub tur ko'-zi.  
- V - - V - - V - - V -  
fo-i-lun fo-i-lun fo-i-lun fo-i-lun

Ko'rinadiki, baytdan Hosil qilingan ritmik bo'laklarning barchasi «fo-i-lun» asl rukniga teng. Baytda yakka o'zi o'zgarishsiz takrorlanib kelgan, bunday ko'rinishiga solim deyiladi. Quyidagi bayt Ham shu ruknning yakka o'zi takrorlanadi, ammo o'zgarishga uchragan:

Rashki xurshidi anvar bo'lubtur yuzing,

Fitnai shaHri kishvar bulubtur ko'zing.

Taqti'si: Rash-ki xur shi-di an var bo'-lub tur yu-zing,  
- V - - V - - V - - V ~  
Fit-na-i shaH-ri kish var bo'-lub tur ko'-zing.  
- V - - V - - V - - V ~  
fo-i-lun fo-i-lun fo-i-lun fo-i-lon

Bunda oxirgi cho'ziq Hijo o'ta cho'ziq Hijoga aylanganligi Hisobiga «fo-i-lun» rukni «fo-i-lon» ga o'zgargan. Aruzda asl ruknlarning o'zgarishga uchrashidan Hosil bo'lgan bu kabi ruknlar ziHof yoki furu'lar deyiladi. (ZiHoflar mavzusiga keyinroq aloHida to'xtalamiz.)

Qo'shaloq takrorlanuvchi ruknlar.

Ruknlardan biri ikkinchisi bilan qo'shilib takrorlanishi mumkin. Bularni Ham shartli ravishda qo'shaloq takrorlanuvchi ruknlar deb ataymiz. Qo'shaloq takrorlanuvchi ruknlar ikki xilda, ya'ni 1 Q 1 va 2 Q 1 ko'rinishida takrorlanadi. Har ikki ko'rinishga bu o'rinda bittadan misol keltirish bilan cheklanamiz, keyinroq baHrlar bobida kengroq to'xtalamiz. Takror bo'lsada yuqoridagi tartib asosida ketma – ketlikda bajaramiz:

Ey qadingdin sarvfa ming Hijolat Har nafas,

Sarv qaddingdin mening ko'nglima yuz ming Havas.

(Navoiy)

Ey-qa-ding-din-sa-rv-fa-ming-Hi-jo-lat-Har-na-fas,

Sa-rv-qad-ding-din-me-ning-ko'ng-li-ma-yuz-ming-Ha-vas.

Ey-qa-ding-din sa-rv-fa ming-Hi-jo-lat Har-na-fas,

Sa-rv-qad-ding din-me-ning ko'ng-li-ma-yuz ming-Ha-vas.

Ey-qa-ding-din sa-rv-fa ming-Hi-jo-lat Har-na-fas,

- V - - - V - - V - - - V -

Sa-rv-qad-ding din-me-ning ko'ng-li-ma-yuz ming-Ha-vas.

- V - - - V - - V - - - V -

Fo i lo tun

Fo i lun

Fo i lo tun

Fo i lun



Ko'rinadiki, bu erda oldingi misollardan farqli ravishda ikki «fo-i-lo- tun» va «fo-i-lun» asl ruknlari bittadan ishtirok etmoqda. Asl ruknlarning ( 1 Q 1) qo'shaloq takrorlanishining birinchi xilida mana shunday ko'rinishda ikki asl bittadan ishtirok etadi. Qolgan asl ruknlarning bittadan qo'shaloq takrorlanishi quyidagi tartibda bo'ladi:

- |                                |  |
|--------------------------------|--|
| 1. Ma fo iy lun Q Fo i lo tun. | 5. Mus taf' i lun Q Maf' u lo tu         |
| 2. Fo i lo tun Q Mustaf' i lun | 6. Mustaf' i lun Q Fo i lo tun           |
| 3. Fo i lo tun Q Fo i lun      | 7. Maf' u lo tu Q Mustaf' i lun          |
| 4. Fau lun Q Ma fo iy lun      | 8. Mustaf' i lun Q Fo i lun <sup>1</sup> |

Asl ruknlarga xos qo'shaloq takrorlanishning ikkinchi xilida ikkita bir xil va bita boshqa xil ( 2Q1) asl rukn takrorlanadi:

Jamolingdin quyosh asru bor uyotli<sub>F</sub>,  
Soching<sub>Fa</sub> banda bo<sub>F</sub> ichra sunbul otli<sub>F</sub> (Navoiy).

Ja-mo-ling-din-qu-yosh-as-ru-bo-tu-tat-li<sub>F</sub>,  
So-ching-<sub>Fa</sub>-ban-da-bo<sub>F</sub>-ich-ra-sun-bu-lot-li<sub>F</sub>.

Ja-mo-ling-din qu-yosh-as-ru bo-tu-tat-li<sub>F</sub>,  
So-ching-<sub>Fa</sub>-ban da-bo<sub>F</sub>-ich-ra sun-bu-lot-li<sub>F</sub>.

Ja-mo-ling-din qu-yosh-as-ru bo-tu-tat-li<sub>F</sub>,  
V - - - V - - - - V - - -  
So-ching-<sub>Fa</sub>-ban da-bo<sub>F</sub>-ich-ra sun-bu-lot-li<sub>F</sub>.  
V - - - V - - - - V - - -

Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun fo-i-lo-tun

Bu keltirilgan misolda ikkita bir xil «Ma-fo-iy-lun» va bita «fo-i-lo-tun» asl rukni kelmoqda. Qolgan ruknlarning 2Q1 shaklida takrorlanishi quyidagi tartibda keladi:

Ma fo iy lun Q Ma fo iy lun Q Fo i lo tun.

Fo i lo tun Q Fo i lo tun Q Ma fo iy lun.

<sup>1</sup> Бу ва бундан кейинги мисолларда ишлатилган қўшув + белгиси арузга оид белги эмас. Ажратиб кўрсатиш учун қўлладик.

Fo i lo tun Q Fo i lo tun Q Mus taf' i lun .

Mus taf' i lun Q Mus taf' i lun Q Maf' u lo tu.

AloHida ta'kidlash kerakki, ruknlarning bunday ko' rinishlarda yonma – yon kelish oddiy takrorlanishi oddiy bo' lmay, ularning Har biridan yangi vazn – baHr Hosil bo' ladi. Keyingi mavzuumiz ana shu Haqda bo' ladi.

Tayanch tushunchalar:

- |                          |                         |
|--------------------------|-------------------------|
| 1. Rukn – ustun.         | 3. Taqte' – kesish.     |
| 2. Sadr – Rais, boshliq. | 4. Ibtido – boshlovchi. |

Savollar:

1. Ritmik birlik sifatida ruknlar qanday Hosil qilinadi?
2. Asl ruknlar deganda nimani tushinamiz?
3. Taqte' nimani anglatadi, vaznni aniqlashda qanday aHamiyatga ega?
4. Ruknlar baytdagi o' rniga ko' ra qanday nomlar bilan ataladi?
5. Baytda ruknlar qanday eHtiyoj yuzasidan qay yo' nlarda takrorlanadi?
6. Ruknlar takrorlanishi qanday aHamiyatga ega?
7. Yakka takrorlanuvchi ruknlar qanday ko' rinishda bo' ladi?
8. Qo' shaloq takrorlanuvchi ruknlarning yakka takrorlanuvchi ruknlardan farqi nimada?
9. Qo' shaloq takrorlanuvchi ruknlar tartibini bilasizmi?



Mavzu: BaHrlar, ularning turlari va Hosil bo'lish usullari.

Reja.

1. BaHr tushunchasi Haqida.
2. BaHrlarning Hosil bo'lish yo'llari.
3. BaHrlarning turlari va ko'rinishlari.

1. BaHr tushunchasi Haqida.

BaHr – arabcha dengiz degan ma'noni anglatadi. Aruz atamasi sifatida rukndan keyingi yirik birlik Hisoblanadi. BaHrlar baytlarda ruknlarning turlicha takrorlanishidan Hosil bo'ladi. Aruz ilmi asoschisi Xalil ibn AHmad baHrlar sonini 15 ta qilib ko'rsatgan. Bular: 1.Mutaqorib 2.Hazaj 3. Rajaz 4. Ramal 5. Vofir 6. Komil 7.Tavil 8.Madid 9. Basid 10.MunsariH 11.Muzori' 13.Muqtazab 13.Mujtass 14. Sari' 15.Hafif baHrlaridir.

Forsiy aruzshunoslar Mutadorik, Jadid (Farib), Qarib, Mushokil baHrlarini qo'shgan ekanlar. Shuningdek, Ariz va Amiq baHrlari Ham baHrlar sarasiga kiritiladi. Bobur bu ikki baHrni «Fayri mushHur» bo'lganligini va «bu baHrlar bila jami' buHur yigirma bir bo'lFay» deb ko'rsatadi<sup>1</sup>. Bular: 1. Mutaqorib 2. Mutadorik 3. Hazaj 4. Rajaz 5. Ramal 6. Vofir 7. Komil 8. Tavil 9. Madid 10. Basid 11. MunsariH 12. Muzori' 13. Muqtazab, 14. Mujtass 15. Sari' 16. Jadid (Farib) 17.Qarib. 18 Hafif. 19. Mushokil. 20. Ariz. 21. Amiq baHrlaridir. Anvar HojiaHmedovning ko'rsatishicha, bu 21 baHrdan quyidagi 9 tasi bizning she'riyatimizda mutlaqo qo'llanmagan, ular arabiy va forsiy she'riyatda maxsus o'lchov turlari sanaladi:

1.Vofir,

4.Muqtazab,

7.Madid,

<sup>1</sup> Бобур. Мухтасар. Тошкент :Фан 1971. 24 б.

- |              |                   |           |
|--------------|-------------------|-----------|
| 2. Basid,    | 5. Jadid (Farib), | 8. Qarib, |
| 3. Mushokil, | 6. Ariz,          | 9. Amiq   |

Mutadorik, Komil, Taviil baHrlaridan juda kam shoirlar foydalanganlar. Qolgan quyidagi 9 baHr esa she'riyatimizda faol qo'llanilgan<sup>1</sup>.

- |               |               |              |           |           |
|---------------|---------------|--------------|-----------|-----------|
| 1. Mutaqorib. | 2. Mutadorik. | 3. Hazaj.    | 4. Rajaz. | 5. Ramal. |
| 6. Muzori'.   | 7. Hafif.     | 8. MunsariH. | 9. Sari'. |           |

## 2. BaHrlarning Hosil bo'lish yo'llari.

BaHrlar ruknlarning baytlardagi takroridan yuzaga keladi: Mutaqorib, Mutadorik, Hazaj, Rajaz, Ramal, Vofir, Komil baHrlaridan iborat dastlabki 7 ta baHr sakkiz asl ruknning 7 tasini bittadan yakka takrorlanishi so'ngida Hosil bo'ladi:

- |                            |                              |
|----------------------------|------------------------------|
| 1. «Fa u lun» ⇔ Mutaqorib. | 5. «Mustaf' i lun» ⇔ Rajaz.  |
| 2. «Fo i lun» ⇔ Mutadorik. | 6. «Mu ta fo i lun» ⇔ Komil. |
| 3. «Ma fo iy lun» ⇔ Hazaj. | 7. «Ma fo i la tun» ⇔ Vofir. |
| 4. «Fo i lo tun» ⇔ Ramal.  |                              |

Bobur mazkur 7 ta baHr Haqida to'xtalib, «bu baHrlarni muttafiq ul arkon derlar. Bulardan Vofir va Komil musaddasul arkon kelibdur, o'zgalari musammanul arkon» deb ko'rsatadi. Qolgan 12 ta baHr esa ruknlarni qo'shilib takrorlanishidan Hosil bo'ladi. Bulardan 8 tasi 1Q1 ko'rinishida keladi. Tartibi quyidagicha:

- |                  |                 |             |
|------------------|-----------------|-------------|
| 1. Ma fo iy lun  | Q Fo i lo tun.  | ⇔ Muzori'.  |
| 2. Fo i lo tun   | Q Mustaf' i lun | ⇔ Hafif.    |
| 3. Mustaf' i lun | Q Fo i lo tun   | ⇔ Mujtass.  |
| 4. Mustaf' i lun | Q Maf' u lo tu  | ⇔ MunsariH. |
| 5. Maf' u lo tu  | Q Mustaf' i lun | ⇔ Muzori'.  |
| 6. Fa u lun      | Q Ma fo iy lun  | ⇔ Taviil.   |
| 7. Fo i lo tun   | Q Fo i lun      | ⇔ Madid.    |

<sup>1</sup> A. Xojaaxmedov. «Ўзбек арузи луғати» «Шарқ» Т.1998 й. 38-бет.

8. Mustaf' i lun Q Foi lun ⇒ Basit.  
Quyidagi to'rt baHr esa asl ruknlarning ikkita bir xil va bitta boshqa xil (2Q1) takroridan Hosil bo'ladi:

9. Mafoiy lun Q Mafoiy lun Q Foi lo tun. ⇒ Qarib.

10. Foi lo tun Q Foi lo tun Q Mafoiy lun. ⇒ Mushokil.

11. Foi lo tun Q Foi lo tun Q Mustaf' i lun. ⇒ Farib

12. Mustaf' i lun Q Mustaf' i lun Q Maf' u lo tu. ⇒ Sari'.

Ruknlarni qo'shib takrorlanishidan Hosil bo'lgan bu tartib baHrlarni Bobur «muxtalif ul arkon» deydi. «Bulardin TaviL, MaDid, Basit, MunsariH, Muzori', Muqtazab, Mujtass musamman ul arkon kelibdur, Sari', Farib, Qarib, Mushokil, Hafif musaddas ul arkon kelibdur» deb ko'rsatadi<sup>1</sup>. Hozirgi aruzshunoslikda Ham bunday atamalar mavjud bo'lib, ruknlarning baytdagi takroriga qarab to'rt ruknli bo'lganda – murabba', olti ruknli ruknli – musaddas, sakkiz rukn bo'lganda – musamman deb yuritiladi. Masalan, «Ramali musamman» deyilgandagi musamman baytda sakkiz rukn borligini anglatadi. Shuningdek, 12 (mustaHzod), 16, 20, 36 ruknli she'rlarga duch kelishimiz mumkin. Bunday vazn ko'p ruknli degan ma'noda «mutataVval» deb yuritiladi. Aruz tizimida, xususan klassik aruzshunoslikda baHrlarni aniqlash avval Ham aytilganidek, taqti'lash orqali amalga oshirilgan. Bu anchayin murakkab usul bo'lganligi sababidan osonroq yo'l, ya'ni yozma tarzda aniqlash usulini qo'llash ma'qulroq. Bunda avval bayt Hijolarga ajratib yoziladi, so'ngra talaffuzga ko'ra ritmik bo'laklarga bo'lamiz, Har bir ritmik bo'lak yoki ruknlardagi Hijolarning sifatini aniqlaymiz va belgilaymiz, ajratilgan ruknlar asl yoki tarmoq ruknlarga mosligiga e'tiborni qaratamiz:

Mutaqorib baHri. (fa-u-lun.)

Kichiklik tatiFi yigitlik eraji,

Yiturdim man emdi tutarda kurattim. («QutadFu bilig»)dan.

Dastlab Hijolarga ajratamiz↗.

<sup>1</sup> Bobur. «Muxtasar» Toshkent. «Fon». 1977. 24-bet.

2. Ki-chik-lik-ta-ti-fi yi-git-lik e-ra-ji,  
 Yi-tur-dim-ma-nem-di-tu-tar-da-ku-rat-tim.  
 ↘
3. Ki-chik-lik ta-ti-fi yi-git-lik e-ra-ji,  
 Yi-tur-dim ma-nem-di tu-tar-da ku-rat-tim.  
 ↘
4. Ki-chik-lik ta-ti-fi yi-git-lik e-ra-ji,  
 V - - V - - V - - V - -  
 Yi-tur-dim ma-nem-di tu-tar-da ku-rat-tim.  
 V - - V - - V - - V - -  
 fa-u-lun fa-u-lun fa-u-lun fa-u-lun

E'tibor bering! 1– baytning ifoda ko'rinishi, 2 – baytni Hijolarga ajratdik, 3 – Hijolar ostiga ularning cho'ziq qisqa talaffuziga qarab chizmasini belgiladik, 4 – ruknlarga ajratdik. Demak, she'ning vazni «fa-u-lun» ruknida egaligi uchun mutaqorib, ruknlar sonining sakkiztaligi uchun musamman, ruknlar butun-soflomligi (o'zgarmagan) uchun solim. Shundan kelib chiqilganda she'ning vazni «Mutaqoribi musamman solim» Hisoblanadi. Endi ushbu tushunchalarni to'liqroq o'rganish va o'rganganlarimizni mustahkamlash maqsadida Har bir baHrning solim ko'rinishiga misollar keltiramiz, sababi ularning vaznini Ham shu tartibda yozma usulda aniqlash mumkin bo'ladi:

1. Mutadoriki musammani solim ( fo-i-lun ).

Jonfa la'ling mayi momidur multamas,  
 Ne Xizr suyi, ne jomi Jamdur Havas.  
 (Navoiy.)

2. Hazaji musammani solim ( Ma-fo-iy-lun).

Bugulshan soz ekan soz ustiga soz etgali keldik,  
 Qadrdonlarni shod aylab sarafroz etgali keldik  
 (Habibiy).

3. Ramali musammani solim. (Fo-i-lo-tun.)

Yuz bu olamcha yaratmoq kudratin ollinda joiz,

Sadyakin ijod qilmoq o'zgalarga yo'qmu javvaz.  
(Navoiy.)

4. Rajazi musammani solim. (Mus-taf'-i-lun.)

Ey ko'nglim olgan dirabo jonim fido bo'lsin sanga,  
Obi Hayoti Xizr ila umre baqo bo'lsin sanga.  
(Atoiy)

5. Komili musammani solim. (Mu-ta-fo-i-lun.)

Xiradimni foratin aylagan yuzi oyu sochlari Holadur,  
Bu chaman aro na sanavbaru na suman bilan guli loladur.  
(Muqimiy)

7. Vofiri musammani solim. (Ma-fo-i-la-tun.)

Firoqing o'tidin kuyar badanim, tafidin erib oqar jigar  
Famim budururki, bo'lanibon yuzung sari tushma-ray nazarim.  
(Navoiy)

Quyida keladigan misollar keltirilganlardan ruknlarning qo'shaloq takrorlanishi bilan farq qiladi. Ulardan ba'hr Hosil bo'lish yo'llarini misollar asosida qayd etilgan tartibda o'rganamiz:

ZiHi naHli qadingdin xijl sarvi bo'stoniy,  
Xat ichra labingdin munfail roHi rayHoni.

(Bobur)

Dastlab Hijolarga ajratamiz:

Zi-Hi naH-li qa-ding-din xi-jl sar-vi bo's-to-niy,  
Xa-tich-ra la-bing-din mun-fa-il ro-Hi ray-Ho-niy.

Ritmik bo'lak yoki ruknlarga ajratamiz:

Zi-Hi-naH li-qa-ding din-xi-jl-sar vi-bo's-to-niy,  
Xa-tich-ra la-bing-din-mun fa-il ro-Hi ray-Ho-niy.

Belgilaymiz:

Zi-Hi-naH li-qa-ding-din xi-jl sar vi bo's-to-niy,  
V - - V - - - V - - V - - -  
Xa-tich-ra la-bing-din mun fa-il ro Hi ray-Ho-niy.  
V - - V - - - V - - V - - -



fa-u-lun ma-fo-iy-lun fa-u-lun ma-fo-iy-lun

Har bir rukn ostidagi belgilarni aloHida o' qiyimiz, shunda birinchi rukndan boshlab «fa-u-lun» va «ma-fo-iy-lun» ruknlari takrorlanib kelayotgani ko' rinadi. Endi buni yuqoridagi qo' shaloq takrorlanuvchi deb ko' rsatilgan ruknlardan qidirib ko' ramiz. (Eslatma: agar qo' shaloq takrorlanuvchi ruknlar tartibi bilan yod olinsa qidirishga Hojat qolmaydi.) Natijada, bu ikki rukn Tavil baHriga to' rri kelishi, Har ikki ruknning solimligi va sakkiztaligi ma' lum bo' ladi.

Demak, vazni «Tavili musammani solim» dir.

Shu o' rinda aytish o' rinliki, Bobur «Muxtasar»da 19 baHrni sanab o' tar ekan «Yana ikki baHrkim Arid va Amiqdur, tavil doirasidin Hosil bo' lur, ul fayri mashHurdur» deb aytadi<sup>1</sup>. DarHaqiqat, bu ikki baHr Ham «fa-u-lun» va «ma-fo-iy-lun» ruknlari takroriga asoslanadi:

1. Aridi musammani solim. (Ma-fo-iy-lun Q fa-u-lun).

Labing marjon, tishing dur, xating rayHon, xading gul,

Soching anbar, yuzing Hur, menging multon, yuzing gul.

(Bobur)

2. Amiqi musammani solim. (fa-u-lun Q Ma-fo-iy-lun).

Kel beri, ey parikim, Hajrdin xastadurmen,

La' lingga tashnadurmen, zulfingga bastadurmen.

(Bobur)

Ruknlarning 1Q1 ko' rinishida takrorlanishidan yuzaga keladigan qolgan baHrlar uchun Ham misollarni keltiramiz. Ularning vaznini Ham shu tartibda aniqlash mumkin bo' ladi.

1. Muzori' i musammani solim. (Ma-fo-iy-lun Q fo-i-lo-tun.)

Jafojo' e benavoe qani sendek bu jaHonda,

Duogo' e benavoe qani mendek bu zamonda. (Bobur)

2. Mujtassi musammani solim. (Mus-taf' -i-lun Q Fo-i-lo-tun.)

Ishq aHliga garchi doim ko' p javrdur, ko' p jafodur,

---

<sup>1</sup> Мухтасар. – 24 бет.

Husn aHliFa ne qilaykim, bemeHru bevafo dur.

(Bobur)

3. MunsariHi musammani solim. (Mus-taf' -i-lun Q Maf' -ulo-tu.)

Sendek qani Husn aHlida Ham bevafo Ham bedard,

Mendek qani ishq aHlida meHnatkashu Famparvard.

(Bobur)

4. Muqtazabi musammani solim. ( Maf' -ulo-tu Q Mus-taf' -i-lun.)

Ey bemeHr kelgil beri bu furqatqa bir chora qil,

Yo yo'q ersa ko'ksimni yor bu ko'nglumni ovora qil (Bobur).

5. Madidi musammani solim. ( fo-i-lo-tun Q fo-i-lun.)

Necha tortay Hajridin sensizin ozormen,

Kelki Hijroningda men umrddin bezormen.

(Bobur)

6. Basiti musammani solim. ( Mus-taf' -i-lun Q fo-i-lun.)

Ey bevafo kelmading Hargiz mening yonima,

Hajring nelar qilmadi bu tinmagur jonima.

(Bobur)

Yuqorida aytilganidek, «Sari', Farib, Qarib, Mushokil baHrlari oldingilaridan farqli ravishda ruknlar 2 Q 1 ko'rinishida va baytda olti marta takrorlanishiga asoslanadi (Musaddas ul-arkon). Bular uchun Ham misol o'rnida bir baytni vaznini yuqoridagi tartibda aniqlaymiz:

Jamolingdin quyosh asru botutatliF, (uyatliF.)

SochingFA banda boF ichra sunbul otliF.

(Bobur)

Ja-mo-ling-din-qu-yosh-as-ru-bo-tu-tat-liF,

So-ching-FA-ban-da-boF-ich-ra-sun-bu-lot-liF.

Ja-mo-ling-din qu-yosh-as-ru bo-tu-tat-liF,

So-ching-FA-ban da-boF-ich-ra sun-bu-lot-liF.

Ja-mo-ling-din qu-yosh-as-ru bo-tu-tat-li<sub>F</sub>,  
 V – – – V – – – V – –  
 So-ching-<sub>F</sub>a-ban da-bo<sub>F</sub>ich-ra sun-bu-lot-li<sub>F</sub>.  
 V – – – V – – – V – –  
 Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun fo-i-lo-tun

Ushbu manzarani qo' shaloq takrorlanuvchi ruknlik baHrlarga solishtiramiz, «Ma-fo-iy-lun – Ma-fo-iy-lun – fo-i-lo-tun» ga to'fri kelishi va ruknlar soni oltita, o'zgarmaganligi ma'lum bo'ladi. Demak, vazni Qaribi musaddasi solim. Qolgan baHrlar vazni Ham shu tartib aniqlanadi.

1. Mushokili musaddasi solim.(Fo-i-lo-tun Q 2ta Ma-fo-iy-lun).

Necha sensiz firoqingda fi<sub>F</sub>on aylay,

Nola birla ulus ba<sub>F</sub>rini qon aylay.

(Navoiy)

2. Farib (Jadid)i musaddasi solim. ( 2ta Fo-i-lo-tun Q Mus-taf' -i-lun.)

Ne baloli<sub>F</sub> Hajr erurkim, zor o'lmisham,

Kelki ul ko'z Hajrida bemor o'lmisham.

(Navoiy)

3. Sari'i musaddasi solim. ( 2ta Mus-taf' -i-lun Q Maf' -u-lo-tu).

Jonim<sub>F</sub>a yuz dardu alam kelturding,

Ko'nglima yuz ranju sitam kelturding.

(Bobur)

4. Hafifi musaddasi solim. ( Fo-i-lo-tun Q Mus-taf' -i-lunQ Fo-i-lo-tun.)

Qayda erding ey maHvashim sharH qil<sub>F</sub>il,

O'lgum erdi gar bir zamon kelmasang bil.

(Navoiy)

Ta'kidlash lozimki, keltirilgan misollar vaznini aniqlashda avvalo Hijolarga to'fri ajratgan bo'lishimiz kerak. Shunda ruknlar o'z-o'zidan kelib chiqadi va baHrni topish oson kechadi.

Tayanch tushinchalar:

1. BaHr – dengiz.
2. Solim – so<sub>F</sub>lom.
5. Musaddas – olti.
6. Musamman – sakkiz.

3. Murabba' – to'rt.                                      7. Mutatavval – ko'p ruknli.  
4. Muttafiq – birlashgan.                            8. Muxtalif – Har xil, turlicha.

Savollar:

1. BaHrlar qanday Hosil qilinadi ?
2. Aruz vaznida baHrlarning umumiy soni nechta, ularni yoddan bilasizmi?
3. Vazn jiHatidan baHrlarni aniqlashda qanday usullardan foydalanish mumkin ?
4. BaHr Hosil qilinishi uchun baytda ruknlar necha xilda takrorlanadi?
5. Baytda ruknlar o'zgarishsiz takrorlansa qanday ataladi ?
6. Ruknlarning baytda to'rt, olti, sakkiz marta takrorlanishi qanday ataladi ?
4. Qanday baHrlar turkiy shariyatda faol qo'llanilib kelingan ?



Mavzu:      ZiHof va tarmoq ruknlar, ularning Hosil bo'lishi.

Reja

1. ZiHoflar Haqida ma'lumot.
2. Son jiHatidan o'zgarishlar.
3. Sifat jiHatidan bo'ladigan o'zgarishlar.
4. Son va sifat jiHatidan o'zgarishlar.
5. Tarmoq ruknlar va ularning ko'rinishlari.

## 1. ZiHoflar Haqida ma'lumot.

Aruz tizimining asosini tashkil etuvchi aslruknlar she'r misralaridagi ritmik bo'laklarni Hamisha Ham to'liq o'lchash imkonini bermaydi yoki buning uchun kifoya qilmaydi. Shu sabab ularni turlicha o'zgartiriladi va yangi ruknlar Hosil qilinadi. Bunday o'zgarishlar aruzda «ziHof», ziHofga uchragan ruknlar ziHof ruknlar deb ataladi. Asl ruknlar Hammasi bo'lib 45 xilgacha ziHof – o'zgarishga uchraydi. Ular asosan to'rt xil sababga ko'ra yuz beradi:

1. Son jiHatidan o'zgarish – ruknlar tarkibidagi Hijolarning tushirilishi yoki orttirilishi.

2. Sifat jiHatidan o'zgarish – qisqa Hijolarni cho'ziqqa, cho'ziq Hijolarni qisqaga yoki cho'ziq Hijolarni o'ta cho'ziqqa o'zgarishi.

3. Son va sifat jiHatidan o'zgarish – ruknlarni bir vaqtning o'zida son va sifat jiHatlardan o'zgarishga uchrashi.

4. Tarmoq Hosil qiluvchi o'zgarish – son va sifat o'zgarishiga uchragan ruknlarni yana sifat o'zgarishlarga uchrashi.

Aruz vaznini o'rganishda bu ziHof o'zgarishlarni bilish va farqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, vaznda ishtirok etayotgan ziHof rukn qaysi asl ruknning qanday o'zgarishlarga uchrashi natijasida paydo bo'lgani va umuman qaysi asl ruknlar qanday ziHoflarga uchrashi mumkinligini bilmaslik vaznni to'g'ri aniqlash va to'g'ri ifoda etishga imkon bermaydi. Zero, vaznni ifodalashda Ham o'zgarishlardan kelib chiqqan Holda o'ziga xos ketma-ketlikka e'tibor qilish lozim bo'ladi. Ya'ni asl rukn, o'zgarish nomi, ziHof rukn nomi va tarmoq rukn nomi ifodada ketma – ket ifoda etiladi. Bu boradagi to'liq tushincha Hosil qilish va mustahkamlash uchun Har bir o'zgarishga izoHi bilan misollar keltiramiz:

### 2. Son jiHatidan o'zgarish:

Ma-fo-iy-lun Fa-u-lun ( V – – – V – – ). Bunda birinchi rukn asl rukn, ikkinchisi shu ruknning o'zgarishidan Hosil bo'lgan ziHof rukn Hisoblanadi. O'zgarish quyidagi tartibda yuz bergan; «Ma-fo-iy-lun» asl ruknining oxirgi Hijosi

«lun» «Hafz» – tashlash yo’li bilan o’gartiriladi, natijada 4 Hijodan iborat «Ma-fo-iy-lun» asli son jiHatidan bittaga qisqaradi «Ma-fo-iy» qoladi, bu o’ziga teng «Fa-u-lun» ko’rinishida ifoda etiladi va tashlangan degan ma’noda MaHzuf deb yuritiladi. Misol tariqasida quyidagi baytga e’tibor qaratamiz:

Meni devona qilofon bir paridur,  
 Ki, insonu malakning dilbaridur. (Atoiy)

Me-ni-de-vo	na-qil-fon-bir	pa-ri-dur,
V - - -	V - - -	V - -
Ki,-in-son-u	ma-lak-ning-dil	ba-ri-dur.
V - - -	V - - -	V - -
Ma-fo-iy-lun	Ma-fo-iy-lun	Fa-u-lun

Agar biz vaznni aniqlash uchun baytlarni Hijo va ruknlarga ajratganda ushbu Holatga duch kelsak she’rning vaznini Hazaj baHrini Hosil qiluvchi «Ma-fo-iy-lun» aslining «Hafz» ziHofiga uchrashi, ya’ni son jiHatidan o’zgarishi oqibatida Hosil bo’lgan vazn «Hazaji musammani maHzuf» deb bilishimiz kerak. Bunda:

Ma-fo-iy-lun – asl rukn.  
 «Hafz»- o’zgartish yo’li – tashlash degani ,  
 Ma-fo-iy – o’zgarish natijasi,  
 Fa-u-lun – Hosil bo’lgan ziHof rukn ifodasi.  
 MaHzuf – ziHof ruknning nomi.

### 3. Sifat jiHatidan o’zgarish:

Ma-fo-iy-lun Ma-fo-i-lun ( V - - - V - V - ). Bu erda Ham birinchi asl rukn, ikkinchisi shu asl ruknning sifat o’zgarishiga uchrashidan Hosil bo’lgan ziHof rukn Hisoblanadi. Bunday sifat o’zgarish asl rukn « Ma-fo-iy-lun»ning «qabz» – ushlab qolish ziHofiga duch kelishi, ya’ni uchinchi cho’ziq Hijo «iy»ning qisqa Hijo «i»ga aylantirilishi natijasida Hosil bo’lgan. Ushlab qolingani degan ma’noda Maqbus deb yuritiladi. Quyidagi bayt shu vaznni o’zida ifoda etgan:

QoshiFa borFali ko’ngul o’ziga kelmedi netay,

Yuziga tushgali ko'zum ko'ziga ilmadi netay. (Bobur)

Qo-shi-فا bor      فا-li ko'-ngul      o'-zi-ga kel      ma-di ne-tay,  
V - - -      V - - -      V - - -      V - V -

Yu-zi-ga tush      ga-li ko'-zum      ko'-zi-ga il      ma-di ne-tay.  
V - - -      V - - -      V - - -      V - V -

Ma-fo-iy-lun      Ma-fo-iy-lun      Ma-fo-iy-lun      Ma-fo-i-lun

Bunday Hollarda she'ning to'liq vazni Hazaj baHri Hosil qiluvchi «Ma-fo-iy-lun» aslining sifat o'zgarishga uchrashidan Hosil bo'lgan vazn «Hazaji musammani maqbuz» deb yuritiladi:

Ma-fo-iy-lun – asl rukn.

«Qabz» – o'zgartish yo'li – ushlab qolish.

Ma-fo-i-lun – Hosil bo'lgan ziHof rukn.

Maqbuz – ziHof rukn nomi.

3. Con va sifat jiHatdan o'zgarish:

Ma-fo-iy-lun - Ma-fo-iy-l (V - - - V - ~). Bu erda Ham birinchisi asl rukn, ikkinchisi shu asl ruknning bir vaqtning o'zida son va sifat jiHatidan o'zgarishga uchrashidan yuzaga kelgan ziHof rukn. Bunday o'zgarish ketma-ket ikki bosqichda yuz beradi. «Ma-fo-iy-lun» avval «qasr» (qicqartirish) o'zgarishiga uchraydi, ya'ni oxirgi Hijo «lun» tushiriladi (son o'zgarish) natijada «ma-fo-iy» qoladi, bundan uchinchi cho'ziq Hijo «iy» o'ta cho'ziq Hijo «iy-l»ga aylantiriladi (sifat o'zgarish). Maqsur deb yuritiladi. Ko'rinadiki, bir paytning o'zida Ham son, Ham sifat o'zgarish yuz bergan. Bunda:

Ma-fo-iy-lun – asl rukn.

«Qasr» – o'zgartirish yo'li – qicqartirish.

«Ma-fo-iy» – son jiHatidan o'zgarish natijasi.

Ma-fo-iy-l – sifat o'zgarish natijasi.

Ma-fo-iy-l – Hosil bo'lgan ziHof rukn ifodasi.

Maqsur – ziHof rukn nomi.



Quyidagi bayt shu tartibda Hosil qilingan vazn asosida yaratilgan:

Ajalni dastidin yuz dodi faryod,  
Ki, umrim Hosilini berdi barbod. (Nodira.)

A-jal-ni-das ti-din-yuz-do di-far-yod,  
V - - - V - - - V - ~  
Ki,-um-rim-Ho si-li-ni-ber di-bar-bod.  
V - - - V - - - V - ~  
Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun

Bu vazn Hazaj baHri Hosil qiluvchi «Ma-fo-iy-lun» aslining «qasr» ziHofiga uchrashi – son va sifat jiHatidan o'zgarishi so'ngida Hosil bo'lgan. «Hazaji musammani maqsur» deb yuritiladi.

Keltirilgan misollarga qarab ziHof – o'zgarishlar faqat oxirgi ruknlar (aruz va zarb)da yuz berar ekan degan xulosaga kelinmasligi kerak. Sababi, ziHof o'zgarishlar barcha ruknlarda bo'lishi mumkin va Hatto siz duch kelgan bayt ruknlarining Hammasi bir yoki bir necha xilda faqat ziHof ruknlardan tashkil topgan bo'lishi Ham mumkin. Ayrim misollarga murojaat etib ko'ramiz:

Bu sariFa guzar qilib qoshimFa et,  
Mening sari nazar qilib taraHHum et  
(Bobur).

Bu-sa-ri-Fa gu-zar-qi-lib qo-shim-Fa-et,  
V - V - V - V - V - V -  
Me-ning-sa-ri na-zar-qi-lib ta-raH-Hu-met.  
V - V - V - V - V - V -  
Ma-fo-i-lun Ma-fo-i-lun Ma-fo-i-lun.

Kel ey rafiqi gulro'y, ketur raHiqi gulrang,  
O'zing ichib menga quy, ko'tar navo tuzib chang.  
(Bobur)

Ke-ley-ra-fi qi-gul-ro'y, ke-tur-ra-Hi qi-gul-rang,  
V - V - V - ~ V - V - V - ~  
O'-zing-i-chib me-nga-quy, ko'-tar-na-vo tu-zib-chang.

V – V – V – ~ V – V – V – ~  
 Ma-fo-i-lun Ma-fo-iyI Ma-fo-i-lun. Ma-fo-iyI.

Har dam manga yuz jafo qilursan,

Ming dardfa mubtalo qilursan

(OgaHiy).

Har dam ma nga yuz ja fo qi lur san,  
 – – V V – V – V – –

Ming dar d fa mub ta lo qi lur san.  
 – – V V – V – V – –

Maf'-u-lu ma-fo-i-lun fa-u-lun

Keltirilgan misollarga e'tibor qilinsa birinchi misol bayt vazni bir xil ziHof rukn Ma-fo-i-lun (asl ruknning sifat o'zgarishiga uchrashi)dan, ikkinchi bayt ikki xil rukn Ma-fo-i-lun, Ma-fo-iyI (asl ruknning son va sifat o'zgarishiga uchrashi)dan, uchinchi misol baytimiz esa Maf'-u-lu, ma-fo-i-lun, fa-u-lun (asl ruknning son va sifat o'zgarishiga uchrashi, bunda Maf'-u-lu – «Ma-fo-iy-lun» aslining «xarb» – vayron qilish ziHofiga uchrashi, ya'ni «ma» qisqa Hijoning tushirilishi, oxirgi cho'ziq Hijo «lun»ning qisqarishi natijasida qolgan fo-iy-lu ifodasi uchun qabul qilingan)dan iborat uch xil ziHof ruknlardan tashkil topgan. Ularning barchasi «Ma-fo-iy-lun» aslidan Hosil bo'lgan ziHof ruknlar Hisoblanadi. Ifodada avval asl rukndan Hosil bo'luvchi baHrning nomi, so'ngra ziHof ruknlarning nomi o'zgarish tartibiga ko'ra ketma-ket ifoda etiladi. Buni tushinib olish uchun yuqoridagi uchinchi baytga diqqat qilaylik. «Ma-fo-iy-lun» aslida avval «xarb», keyin «qabz», so'ngida «Hazf» o'zgarishlari yuz bergan. Shundan kelib chiqib ushbu bayt vazni ifodasi «Hazaji musaddas (takror oltita)i axrabi maqbuzi maHzuf» deb belgilanadi. Bu kabi ziHof o'zgarishlar Har bir baHrda bir necha xil ko'rinishlarni tashkil etadi.

#### 4. Tarmoq ruknlar

Asl ruknlar va ularning ziHof o'zgarishlari ba'zan misralardagi xilma – xil bo'laklarni to'fri o'lchash uchun etarli bo'lmaydi. Shuning uchun asl ruknlarning

turli xil o'zgarishlarga uchrashidan Hosil bo'lgan ziHof ruknlar yana sifat jiHatidan o'zgartiriladi. Natijada, yangi qo'shimcha ruknlar paydo bo'ladi va bular tarmoq ruknlar deb yuritiladi. Klassik she'riyatimizda «foilotun» Hamda «mustaf'ilun» asllarining o'zgarishga uchrashidan Hosil bo'lgan ziHof ruknlarda bunday qayta o'zgarishlar kuzatiladi va ularga ko'plab duch kelinadi. Masalan, Ramal baHrini tashkil etuvchi «Fo-i-lo-tun» aslining «Hazf» ziHofiga uchrashidan (oxirgi «lun» qismi tashlanadi va qolgan «fo-i-lo» uchun unga teng «fo-i-lun» olinadi) yuzaga kelgan maHzuf ko'rinishi «fo-i-lun»ning yana «xabn» o'zgarishiga uchrashi – birinchi cho'ziq «fo»ni qisqa «fa»ga aylantirilishi so'ngida yangi tarmoq rukn «fa-i-lun» Hosil qilinadi. Maxbuni maHzuf deb yuritiladi. Shuningdek, «Maxbuni maqsur», «Maxbuni maqtu'», «Maxbuni maqtu'i musabbaF» kabi tarmoq ruknlari ana shunday tarmoq ruknlar Hisoblanadi va aytilganidek ularga ko'plab duch kelinadi.

Tayanch so'zlar:

1. Rafiq - do'st.
2. RaHiq – sof, tiniq may.
3. Chang – cholFU asbobi, changal, changak.
4. Gulro'y – go'zal yuzli.

Savollar:

1. Aruzda ziHoflar nimani anglatadi?
2. Asl ruknlarning o'zgarish sababi qanday izoHlanadi?
3. Asl ruknning son jiHatidan o'zgarishi qanday, sifat jiHatidan o'zgarishi-chi?
4. Son va sifat jiHatidan o'zgarishga uchrasa, asl ruknlarda qanday Hodisa yuz beradi?
5. Asl rukn o'zidan Hosil bo'lgan ziHof ruknlar bilan yonma – yon keladimi?
6. She'r vazni faqat ziHof ruknlardan tashkil topgan bo'lishi mumkinmi?
7. Asl ruknda ketma – ket bir necha o'zgarishlar yuz bersa, vazn ifodasi qanday belgilanadi?
8. Tarmoq ruknlar nima, ular qanday Hosil bo'ladi?



Mavzu: O'zbek shariyatida keng qo'llanilgan baHrlar ning ziHof  
ko'rinishlari.

#### Reja

1. Mutadorik baHri (fo-i-lun) ziHoflari.
2. Mutaqorib baHri (fa-u-lun) ziHoflari.
3. Hazaj baHri (ma-fo-iy-lun) ziHoflari.
4. Rajaz baHri (mus-taf' -i-lun) ziHoflari.
5. Ramal baHri (fo-i-lo-tun) ziHoflari.
6. Mujtass baHri (mus-taf' -i-lun Q fo-ilo-tun) ziHoflari.
7. Hafif baHri (fo-i-lo-tun Q mus-taf' -i-lun) ziHoflari..
8. Muzori' baHri (ma-fo-iy-lun Q fo-i-lo-tun) ziHoflari..
9. MunsariH baHri (mus-taf' -i-lun Q maf' -u-lo-tu) ziHoflari.
10. Sari' baHri ( 2 ta mus-taf' -i-lun Q 1 ta maf' -u-lo-tu) ziHoflari.

Oldin aytilganidek, aruz tizimida mavjud 21 baHrdan klassik she'riyatimizda 10 ta baHr vazni faol qo'llanilib kelingan. Ushbu baHrlar va ularga xos ziHof o'zgarishlarga kengroq (misollar asosida) to'xtalamiz.

#### 1. Mutadorik baHri (fo-i-lun) ziHoflari.

Mutadorik- arabcha bir – biriga ulanuvchi degan ma'noni anglatadi va

«fo-i-lun» ruknining takroriga asoslanadi. Bu baHr nisbatan kamroq qo'llanilgan bo'lsada Navoiy, OgaHiy, Mashrab, Huvaydo kabilar she'riyatida uchraydi. Asosan 8 ruknli musamman va 16 ruknli tarmoqlariga duch kelinadi. Bu tarmoq ruknlar quyidagilardir.

➤Fa-i-lun ( V – – ) – «foilun» asl ruknining «xabn» (qisqa qilish) ziHofiga uchrashi, ya'ni birinchi cho'ziq Hijoni qisqaga aylantirilishi natijasida Hosil bo'ladi va maxbun deb yuritiladi.

Kelmadi miragim, qondurur yuragim,

Qondurur yuragim, kelmadi miragim

(Bobur).

Kel-ma-di mi-ra-gim, qon-du-rur yu-ra-gim,

– V – V – – – V – V – –

Qon-du-rur yu-ra-gim, kel-ma-di mi-ra-gim.

– V – V – – – V – V – –

fo-i-lun fa-i-lun fo-i-lun fa-i-lun

Baytda bir rukn solim, bir rukn maxbun. Demak, vazni Mutadoriki musammani maxbun.

Quyidagi bayt xudi shu «mutadoriki maxbun» ziHofining 16 ruknli vazn ko'rinishini ifoda etadi.

Tunu kun karaming o'qini otasan Hama olam elini nishona qilib,

Vale navbat agar manga etsa xato qilasan necha nav'i baHona qilib.

(OgaHiy)

Tu-nu-kun ka-ra-ming o'-qi-ni o-ta-san Ha-ma-o la-me-li

V V – V V – V V – V V – V V – V V –

ni-ni-sho na qi-lib,

V V – V V –

Va-le-nav ba-ta-gar ma-n-ga-et sa-xa-to qi-la-san ne-cha-nav'

V V – V V – V V – V V – V V – V V –

i-ba-Ho na qi-lib

V V – V V –

➤ Fa'-lun ( -- )— «foilun» asl ruknining «qat'» (kesish) o'zgarishiga duch kelishi, ya'ni oxirgi Hijoning tushirilishi va ikkinchi qisqa Hijo «i» ni cho'ziqqa aylantirilishi natijasida Hosil bo'ladi. Maqtu' deb yuritiladi.

Bor<sub>Fil</sub> ey Hamdam Har yoni,  
Ko'nglim itmish, top<sub>Fil</sub> oni.

(Navoiy)

Bor-<sub>Fil</sub> ey-Ham dam-Har yo-ni,

— — — — — — — —  
Ko'ng-lim it-mish, top-<sub>Fil</sub> o-ni.

— — — — — — — —  
fa'-lun fa'-lun fa'-lun fa'-lun

Vazni: Mutadoriki musammani maqtu'.

➤ Fa-i-lon (V- -) – «foilun» asl ruknining maxbun tarmoqi «fa-i-lun»ning «izola» (etakni qo'yish,uzaytirish) ziHofi Bilan o'zgartirilishi. Bunda oxirgi cho'ziq Hijo «lun» o'ta cho'ziq Hijo «lon»ga aylantiriladi. Maxbuni muzol deyiladi:

Rashki xurshidi anvar bo'lubtur yuzung,  
Fitnai shaHri kishvar bo'lubtur ko'zung

(Bobur).

Rash-ki-xur shi-di-an var-bo'-lub tur-yu-zung,

— V — — V — — V — — V —

Fit-na-i shaH-ri-kish var-bo'-lub tur-ko'-zung

— V — — V — — V — — V —

fo-i-lun fo-i-lun fo-i-lun fa-i-lon

Vazni: Mutadoriki musammani maxbuni muzol.

## 2. Mutaqorib baHri (Fa-u-lun ) ziHoflari

Mutaqorib arabcha – bir biriga yaqinlashuv degan ma'noni anglatadi va «fa-u-lun» asl ruknining takroriga asoslanadi. Turkiy she'riyatda nisbatan qadimiy vazn sanaladi. Sheriyatda Ham dostonchilikda Ham keng qo'llanilib kelingan. «Mezon ul-avzon» da Navoiy bu baHrning 11 vazniga to'xtalgan. Bobur esa

«Muxtasar» asarida 24 vaznini keltiradi. Shulardan 8 tasidan foydalanib kelingan. Bu o' rinda ko' p duch kelishimiz mumkin bo' lgan 6 xil vaznga to' xtalimiz:

➤Fa' -lun. ( - - ) «Fa-u-lun» rukni «salm»- (buzish) ziHofi bilan o' zgartirilsa, birinchi qisqa Hijo tushadi, qolgan «u - lun» ( - - ) qismi o' ziga teng «Fa' -lun» tarzida ifoda etiladi. Aslam deyiladi.

Nigorim sensiz qarorim yo' qdur,

Qarorim sensiz nigorim yo' qdur

(Bobur).

Ni-go-rim	sen-siz	qa-ro-rim	yo' q-dur,
V - -	- -	V - -	- -
Qa-ro-rim	sen-siz	ni-go-rim	yo' q-dur.
V - -	- -	V - -	- -
Fa-u-lun	Fa' -lun	Fa-u-lun	Fa' -lun

Vazni: «Mutaqoribi musammani aslam»

➤Fa' -lu. ( - V ) «Fa-u-lun» asl rukni «saram» (oldingi tishini sindirish) ziHofi bilan o' zgartirilganda; birinchi qisqa Hijo «fa» tushiriladi va oxirgi cho' ziq Hijo « lun » qisqartiriladi « lu » qoladi, natijada qolgan «u - lu» ( - V ) o' ziga teng «fa' -lu» ko' rinishida ifodalanadi va Asram deb yuritiladi.

Ishq famidin asru xazinmen,

Sabr komidin asru faminmen

(Bobur).

I-shq	fa-mi-din	as-ru	xa-zin-men,
- V	V - -	- V	V - -
Sa-br	ko-mi-din	as-ru	fa-min-men.
- V	V - -	- V	V - -
Fa' -lu	Fa-u-lun	Fa' -lu	Fa-u-lun

Vazni: «Mutaqoribi musammani asram»

➤Fa-u-lu. ( V – V ). «Fa-u-lun» asl rukni «qabz» (ushlash, ushlangan) ziHofiga uchraydi – oxirgi cho'ziq Hijo «lun» qisqaradi «lu», natijada «fa-u-lu» Hosil bo'ladi va maqbuz deb yuritiladi.

Biling muni davlat gar o'lsa muyassar,

RaHiqi muravvaq rafiq suxandar.

(Bobur)

Bi-ling-mu	ni-dav-lat	ga-ro'l-sa	mu-yas-sar,
V – V	V – –	V – V	V – –
Ra-Hi-qi	mu-ra-vaq	ra-fi-q	su-xan-dar.
V – V	V – –	V – V	V – –
fa-u-lu	Fa-u-lun	fa-u-lu	Fa-u-lun

Vazni: «Mutaqoribi musammani maqbuz»

➤Fa-al. ( V – ) «Fa-u-lun» asl rukni «Hazf» (tashlash) ziHofi bilan o'zgartirilganda; oxirgi cho'ziq Hijo «lun» tushriladi va qolgan «fa-u» qismi o'ziga teng «Fa-al» ruknida ifoda etiladi, maHzuf deb yuritiladi.

Qadi shoHi guldek nigorim qani,

Labi Funchadek guluzorim qani.

(Bobur)

Qa-di-sho	Hi-gul-dek	ni-go-rim	qa-ni,
V – –	V – –	V – –	V –
La-bi-Fun	cha-dek-gul	u-zo-rim	qa-ni.
V – –	V – –	V – –	V –
Fa-u-lun	Fa-u-lun	Fa-u-lun	Fa-al

Vazni: «Mutaqoribi musammani maHzuf»

➤Fa-u(v)l. ( V ~ ). «Fa-u-lun» asl rukni «qasr» (qisqa qilish) ziHofi bilan o'zgartirilganda; oxirgi cho'ziq Hijo «lun» tushriladi va ikkinchi cho'ziq Hijo «u» o'ta cho'ziqqa aylantiriladi, Fa-u(v)l Hosil bo'ladi. Maqsur deb yuritiladi.

JaHon zoli Ham makr etar Ham nifoq,

Oni to'rt mazHabda qil uch taloq

(Navoiy).



Ja-Hon-zo li-Ham-mak re-tar-Ham ni-foq,

V – – V – – V – – V ~

A-ni-to' rt-maz-Hab da-qil-uch ta-loq.

V – – V – – V – – V ~

Fa-u-lun Fa-u-lun Fa-u-lun Fa-u(v)l

Vazni: «Mutaqoribi musammani maqsur»

➤ Fa-u-lon. ( V – ~ ). «Fa-u-lun» asl ruknining oxirgi cho'ziq Hijosi «lun» ni «tasbi<sub>F</sub>»- to'ldirish yo'li bilan «lon» shaklida o'ta cho'ziq talaffuz qilish oqibatida yuzaga keladi. Musabba<sub>F</sub> deb yuritiladi.

ZiHi sekribon charx uza raHnavarding,

Nazar topmayin to'tiyoliqqa garding.

(Navoiy)

Zi-Hi-sek ri-bon-char xu-za-raH na-var-ding,

V – – V – – V – – V – ~

Na-zar-top ma-yin-to' ti-yo-liq qa-gar-ding.

V – – V – – V – – V – ~

Fa-u-lun Fa-u-lun Fa-u-lun Fa-u-lon

Vazni: «Mutaqoribi musammani musabba<sub>F</sub>»

Mutaqorib baHriga xos yuqorida keltirilgan ziHof o'zgarishlarni esda saqlab qolishga mo'ljalab qisqa va soda Holga keltiramiz, imkon qadar yod olamiz:

1. Fa-u-lun «salm» - buzish «u-lun» - Fa'-lun ( V – ). Aslam.
2. Fa-u-lun «saram»-old.tish.sindirish- «u-lu» -Fa'-lu ( – V ) Asram
3. Fa-u-lun «qabz» - ushlarsh- Fa-u-lu ( V – V ) Maq buz.
4. Fa-u-lun «Hazf» - tashlarsh- «fa-u» - Fa-al ( V – ) MaHzuf.
5. Fa-u-lun «qasr» - qisqa qilish – «fa-u» – fa-u(v)l ( V ~ ) Maqsur. 6.

Fa-u-lun «tasbi<sub>F</sub>»- to'ldirish - Fa-u-lon ( V – ) Musabba<sub>F</sub>.

Tayanch so'zlar:

1. Asru – juda ko'p, benHoya.
2. Xazin – famgin.
5. Muravvaq – suzib tozalangan
6. Suxandar – shirin so'z.

3. Kom – tilak, istak.                      7. RaHnavard – yo'l ochuvchi.  
4. RaHiq – sof, tiniq may.                8. ZiHi – yaxshi, go'zal.

Savollar:

1. Mutaqorib so'zi qanday ma'no anglatadi?
2. Mutaqorib baHri qaysi asl ruknga asoslanadi?
3. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vaznni ko'rsatadi?
4. Mutaqorib baHri qanday ziHof ruknlarga ega va ular qanday Hosil qilingan?

### 3. Hazaj baHri (Ma-fo-iy-lun) ziHoflari

Hazaj (arabcha – ovozni yoqimli qilish degani.) baHri «ma-fo-iy-lun» asl rukning takroridan Hosil bo'lgan, klassik she'riyatimizda ancha ko'p qo'llanilgan vazn turidir. Navoiy bu baHrga tegishli 46 vaznni, Bobur 105 vaznni mavjudligini ko'rsatib o'tadi. Bu vazn XIV asrdan boshlab she'riyatimizdan munosib o'rin olgan bo'lsa, XX asrgacha bo'lgan she'riyatda Ham keng va barqaror qo'llanilib kelingan.<sup>1</sup> Ularning aksariyati asosan olti va sakkiz ruknli vaznlar Hisoblanadi. Hazaj baHri rukni «ma-fo-iy-lun» 12 xil o'zgarishga uchraydi va 12 xil vaznni yuzaga keltiradi.

➤Ma-fo-i-lun. ( V – V – ) «Ma-fo-iy-lun» asl rukni «qabz» (ushlash) ziHofi Bilan o'zgartirilganda, uchinchi cho'ziq Hijo «iy»ning qisqa Hijo «i»ga o'zgartirilishidan Hosil bo'ladi, Maqbus deb ataladi.

Seningcha kimdadur safo, seningcha kimdadur balo,

Meningcha kim qilur vafo, meningcha kim chekar jafo.

Se-ning-cha-kim    da-dur-sa-fo,    se-ning-cha-kim    da-dur-ba-lo,  
V    –    –    –    V    –    –    –    V    –    –    –    V    –    V    –

Me-ning-cha-kim    qi-lur-va-fo,    me-ning-cha-kim    che-kar-ja-fo.  
V    –    –    –    V    –    –    –    V    –    –    –    V    –    V    –

Ma-fo-iy-lun            Ma-fo-iy-lun            Ma-fo-iy-lun            Ma-fo-i-lun

Vazni: Solim, aruz va zarb maqbus. «Hazaji musammani maqbus».

<sup>1</sup> Kengrok ma'lumot uchun qarang: A.Хожиаҳмедов. «Ўзбек арузи лугати» 194 б.

➤Ma-fo-iy-lu. ( V – – V ) «Ma-fo-iy-lun» asl ruknidagi bu xil o'zgarish rukn oxiridagi sokin Harfni «kaff»-qaytarish tufayli tushirilishi yoki cho'ziq Hijo «lun»ni qisqa Hijoga qaytarilishidan Hosil bo'lgan, makfuf deb yuritiladi.

Yuzi birla ul oy qaddi biri sarvu biri lola,

Xati birla aning xaddi biri maHu biri Hola.

Yu-zi-bir-la u-loy-qad-di bi-ri-sar-vu bi-ri-lo-la,  
V – – V V – – – V – – V V – – –

Xa-ti-bir-la a-ning-xad-di bi-ri-mo-Hu bi-ri-Ho-la.  
V – – V V – – – V – – V V – – –

Ma-fo-iy-lu Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lu Ma-fo-iy-lun

Vazni: Bir rukn makfuf, bir rukni solim. «Hazaji musammani makfuf».

➤Maf'-u-lun. ( – – – ) «Ma-fo-iy-lun» asl rukni «xarm» – burnini kesish ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan ziHof rukn bo'lib, birinchi qisqa Hijo «ma» tushirilgan, qolgan «fo-iy-lun» qismi o'ziga teng «Maf'-u-lun» rukni bilan ifodalangan. AHram deb yuritiladi.

To oldi ko'ngullarni ul yuz bila ul gesu,

Kunduz elga ne orom, kecha elga ne uyqu.

(Bobur)

To-ol-di ko'-ngul-lar-ni ul-yuz-bi la-ul-ge-su,  
– – – V – – – – – – V – – –

Kun-duz-el ga-ne-o-rom, ke-cha-el ga-ne uy-qu.  
– – – V – – – – – – V – – –

Maf'-u-lun Ma-fo-iy-lun Maf'-u-lun Ma-fo-iy-lun

Vazni: Bir rukn axram, bir rukni solim. «Hasaji musammani axram».

➤Maf'-u-lu ( – – V ). Bu ziHof rukn «Ma-fo-iy-lun» asl ruknini «xarb»-vayron qilish, ya'ni birinchi Hijo «ma» tushiriladi, «fo-iy-lun» qoladi, bundan oxirgi «lun» cho'ziq Hijo qisqaga aylantiriladi, natijada «fo-i-lu» Hosil bo'ladi va bu o'ziga teng «Maf'-u-lu» ruknida ifodalangani, Axrab deb yuritiladi.

To olfali ko'nglimni ul yuz bila ul gesu,

Kunduz manga ne orom, kecha manga ne uyqu.

(Bobur)

To-ol-~~fa~~ li-ko'ng-lim-ni ul-yuz-bi la-ul-ge-su,  
- - V V - - - - - V V - - -  
Kun-duz-ma nga-ne-o-rom, ke-cha-ma nga-ne-uy-qu.  
- - V V - - - - - V V - - -  
Ma~~f~~'-u-lu Ma-fo-iy-lun Ma~~f~~'-u-lu Ma-fo-iy-lun

Vazni: Bir rukn axrab, bir rukni solim. «Hazaji musammani axrab».

➤Ma-fo-iy-lun. ( V - - ~ ) «Ma-fo-iy-lun» asl rukni «qasr» (qisqa qilish) ziHofiga uchraydi. Bunda oxirgi cho'ziq Hijo «lun» tushiriladi, qolgan «Ma-fo-iy» dan oxirgi cho'ziq Hijo «iy» o'ta cho'ziq talaffuz qilinadi va «Ma-fo-iy-lun» rukni bilan ifodalanadi, Maqsur deb yuritiladi.

Yuzung uza qaro zulfung nedur bil ey dilafro'z,  
Yilone ganj uza yotib oni soxlar shabu ro'z.

(Bobur)

Yu-zung-u-za qa-ro-zul-fung ne-dur-bil-ey di-laf-ro'z,  
V - - - V - - - V - - - V - ~  
Yi-lo-ne-ganj u-za-yo-tib o-ni-sox-lar sha-bu-ro'z.  
V - - - V - - - V - - - V - ~  
Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun Ma-fo-iy-lun.

Vazni: Solim, aruz va zarb maqsur. «Hazaji musammani maqsur».

➤Fo-i-lun. ( - V - ) «Ma-fo-iy-lun» asl ruknini «shatar»-aybli qilish ziHofiga uchrashi bo'lib, bunda birinchi Hijo «ma» tushiriladi, «fo-iy-lun» qoladi, bundan «iy» Hijosi qisqaga aylantiriladi, natijada «fo-i-lun» Hosil bo'ladi va Ashtar deb yuritiladi:

Fofil o'lma, ey soqiy, gul cho~~fin~~ fa~~ni~~ mat tut,  
Va~~q~~ti aysh erur boqiy, ol cho~~f~~ir, ke~~t~~ur bot tut.

(Bobur)

Fo-fi-lo'l ma,-ey-so-qiy, gul-cho-~~fin~~ fa~~ni~~ mat tut,  
- V - V - - - - - V - V - - -  
Va~~q~~-ti-aysh er-ur-bo-qiy, ol-cho-~~f~~ir, ke-tur-bot-tut.

– V – V – – – – V – V – – –  
fo-i-lun ma-fo-iy-lun fo-i-lun ma-fo-iy-lun

Vazni: Bir rukn ashtar, bir rukni solim. «Hazaji musammani ashtar».

Yuqorda ta'kidlanganidek, ayrim bayt va fazallarning vazni «Ma-fo-iy-lun» aslining ziHof o'zgarishlarga uchragan ruknlarida bo'lishi mumkin. Bunda baHr nomi saqlangani Holda ziHof o'zgarishlar ketma-ket ifoda etilib boriladi. Masalan, quyidagi baytda shunday Hodisa kuzatiladi:

Yor bordiyu ko'nglimda aning nozi qolibdur,  
Andofki, qulofim to'la ovozi qolibdur.

(Navoiy).

Yor-bor-di yu-ko'ng-lim-da a-ning-no-zi qo-lib-tur,  
– – V V – – V V – – V V – –  
An-dofki, qo'-lo-fim-to' la-o-vo-zi qo-lib-tur.  
– – V V – – V V – – V V – –  
Ma-fu-lu Ma-fo-iy-lu Ma-fo-iy-lu fa-u-lun

Baytning vazni «Ma-fo-iy-lun» aslining birinchi axrab, ikkinchisi makfuf, uchinchisi maHzuf ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan. Baytning vazn «Hazaji musammani axrabi makfufi maHzuf»dir.

Hazaj baHriga xos keltirilgan ziHof o'zgarishlar uning «musaddas» tarmoqi uchun Ham aynan xos. Shuning uchun ikkita misol keltirish bilan kifoyalanamiz.

➤ Fa-u-lun. (– V –) Bu rukn «Ma-fo-iy-lun» asl ruknini «Hafz» (tashlash) ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan. Oxirgi cho'ziq Hijo «lun» tushriladi va qolgan «Ma-fo-iy» qismi o'ziga teng «Fa-u-lun» ruknida ifoda etiladi, MaHzuf deb yuritiladi.

Kerakmas jon manga jonondin ayru,  
Kishi netsun badanni jondin ayru.

(Munis).

Ke-rak-mas-jon ma-nga-jo-non din-ay-ru,  
V – – – V – – – – V –

Ki-shi-net-sun	ba-dan-ni-jon	din-ay-ru.
V - - -	V - - -	- V -
Ma-fo-iy-lun	Ma-fo-iy-lun	Fa-u-lun

Vazni: «Hasaji musaddasi maHzuf».

➤Mafoiy ( V - ~ ). Bu rukn «Ma-fo-iy-lun» asl ruknini «qasr» ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan. Oxirgi cho'ziq Hijo «lun» tushiriladi va uchinchi cho'ziq Hijo «iy» o'ta cho'ziqqa aylantiriladi. Maqsur deb yuritiladi.

Kungil to orazingga bo'ldi mushtoq,  
Ko'zimda gaH qizil guldur, gaHi oq.

(Lutfiy)

Ko'-ngil-to-o	ra-zing-ga-bo'l	di-mush-toq,
V - - -	V - - -	V - ~

Ko'-zim-da-gaH	qi-zil-gul-dur,	ga-Hi-oq.
V - - -	V - - -	V - ~

Ma-fo-iy-lun    Ma-fo-iy-lun    ma-fo-iy

Quyidagi baytning vazni esa «Ma-fo-iy-lun» aslining birinchi axrab, ikkinchisi maqbuZ, uchinchisi maHzuf ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan vazn «Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maHzuf»dir.

Ko'zung ne balo qaro bo'luptur,  
Kim jonFa qaro balo bo'luptur.

(Navoiy)

Ko'-zung-ne	ba-lo-qa-ro	bo'-lup-tur,
- - V	V - V -	V - -

Kim-jon-Fa	qa-ro-ba-lo	bo'-lup-tur.
- - V	V - V -	V - -

Maf'-u-lu    Ma-fo-i-lun    fa-u-lun

Hazaj baHriga, xos yuqorida keltirilgan, asosan FaZalarda qo'llanilgan ziHof o'zgarishlarni esda saqlab qolishga mo'ljalab qisqa va soda Holga keltiramiz va bularni Ham imkon qadar yod olamiz:

1. Ma-fo-iy-lun «xarm» (burnini ) – fo-iy-lun – Maf'-u-lun. ⇔ AHram.

### kesish

2. Ma-fo-iy-lun «Hafz» (tashlash) – ma-fo-iy q fa-u-lun ⇒ MaHzuf.
3. Ma-fo-iy-lun «qabz» (ushlash) – ma-fo-i-lun ⇒ Maqbuz.
4. Ma-fo-iy-lun «qasr» (qisqartirish) – ma-fo-iy-l ⇒ Maqsur.
5. Ma-fo-iy-lun «kaff» (qaytarish) – ma-fo-iy-lu ⇒ Makfuf.
6. Ma-fo-iy-lun «shatar» (aybli qilish) – fo-i-lun ⇒ Ashtar.
7. Ma-fo-iy-lun «xarb» (vayron qilish) – fo-iy-lu q maf'-u-lu ⇒ Axrab.
8. Ma-fo-iy-lun «xatm» (tishini tagidag sind) – ma-fo q fa-u(v)l ⇒ Axtam.

«Fa-u(v)l» singari qolgan «Fa-al», «Fa'», «Fo'» ziHoflari ruboiy vaznlarida, oxirgi ruknlar aruz va zarbda qo'llaniladi.

### Tayanch so'zlar:

1. Gesu – soch.
2. Shab – qoroni.
3. Ro'z – kun.
4. Chofir – may, sharob.

### Savollar:

1. Hazaj so'zi qanday ma'no anglatadi?
2. Hazaj baHri qaysi asl rukn takroriga asoslanadi?
3. Hazaj baHrining musaddas va musamman tarmoqlari qanday?
4. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vaznni ko'rsatadi?
5. Hazaj baHri qanday ziHof ruknlarga ega va ular qanday Hosil qilingan?
6. Asl rukn ketma-ket bir necha ziHof o'zgarishlarga uchragan bo'lsa, qanday ifoda etiladi?

### 4. Rajaz baHri – ( Mus-taf'-i-lun ) ziHoflari

Rajaz (arabcha – tezlik, iztirob.) baHri «Mus-taf'-i-lun» asl rukning takrorlanishiga asoslanadi. Ushbu baHr Ham she'riyatimizda qo'llanilgan. Navoiy «Mezon ul-avzon» da bu baHrning 13 vaznga, Bobur «Muxtasar» da 63 vaznga

ega ekanligini ko'rsatganlar. Anvar HojiaHmedov she'riyatimizda rajaz baHrining sakkiz ruknli to'rt vaznidangina foydalanib kelinganini aytadi<sup>1</sup>.

➤Ma-fo-i-lun. (V – V –). Bu ziHof rukn «Mus-taf'-i-lun» aslining «xabn» - etakni yiFish, qisqartirish uchun tikish ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan. Ya'ni birinchi cho'ziq Hijo «Mus» qisqa Hijo «mu»ga aylantiriladi, Hosil bo'lgan «Mu-taf'-i-lun» o'ziga teng «Ma-fo-i-lun» ruknida ifoda etiladi. Maxbun deb yuritiladi.

Onsiz bu jonni ne qilay, jonsiz jaHonni ne qilay,

Jonsiz jaHonni ne qilay, onsiz bu jonni ne qilay.

(Bobur)

On-siz-bu-jon ni-ne-qi-lay, jon-siz-ja-Hon ni-ne-qi-lay,  
– – V – V – V – – – V – V – V –

Jon-siz-ja-Hon ni-ne-qi-lay, on-siz-bu-jon ni-ne-qi-lay.  
– – V – V – V – – – V – V – V –

Mus-taf'-i-lun Ma-fo-i-lun Mus-taf'-i-lun Ma-fo-i-lun

Ko'rinadiki, baytda bir rukn solim, bir rukn maxbun (Hashv, aruz va zarb yuqoridagicha ziHofga uchragan) vaznidagi «Rajazi musammani maxbun»dir.

Mana bu bayt esa to'liFicha «xabn» yo'li bilan Hosil qilingan ziHof rukn «Ma-fo-i-lun» vaznidadir:

Vafo meHr tarketib jafou javr ko'rsatur.

Ulusqa yaxshidur netay, manga butavr ko'rsatur.

(Bobur)

Va-fo-me-Hr ta-rk-e-tib ja-fo-u-jav r-ko'r-satur.  
V – V – V – V – V – V – V –

U-lus-qa-yax shi-dur-ne-tay, ma-nga-bu-tav r-ko'r-satur.  
V – V – V – V – V – V – V –

Ma-fo-i-lun Ma-fo-i-lun Ma-fo-i-lun Ma-fo-i-lun

Bunday Hollarda Ham mazkur ziHof rukn «Mus-taf'-i-lun» aslining «xabn» ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lganligi uchun «Rajazi musammani maxbun» deb yuritiladi.

<sup>1</sup> (Қаранг: «Ўзбек аруз луғати» 105 бет.)



➤Muf-ta-i-lun. ( – V V – ). Bu ziHof ko'rinish «Mus-taf' -i-lun» aslining «tayy» - yiFish ma'nosidagi o'zgarishga uchrashidan, ya'ni asl rukndagi ikkinchi «taf'» cho'ziq Hijo qisqa Hijo «ta» ga aylantiriladi va Hosil bo'lgan «Mus-ta-i-lun» o'ziga teng «Muf-ta-i-lun» ruknida ifoda etiladi va Matviy deyiladi.

MeHru vafoni tark etib, javru jafo ko'rsatmagil,  
Bizga surib tiFi sitam elga da'vo ko'rsatmagil.

(Navoiy)

MeH-ru-va-fo ni-tar-ke-tib, jav-ri-ja-fo ko'r-sat-ma-gil,  
– V V – – V – – V V – – V –  
Biz-ga-su-rib ti-fi-si-tam el-ga-da'-vo ko'r-sat-ma-gil.  
– V V – – V – – V V – – V –

Muf-ta-i-lun Mus-taf' -i-lun Muf-ta-i-lun Mus-taf' -i-lun

Vazni: Bir rukn matviy, bir rukn solim - «Rajazi musammani matviy».

Quyidagi bayt to'liFicha «tayy» yo'li bilan Hosil qilingan ziHof rukn «Muf-ta-i-lun» takroridan yuzaga kelgan. Bu Ham «Rajazi musammani matviy» deyiladi.

Kel beri ey rashki qamar, la'li labing nek shakar,  
Furqating o'tinda ko'ngil chekdi sipeHr uzra sharar.

(Navoiy)

Kel-be-ri-ey rash-ki-qa-mar, la'-li-la-bing ne-k-sha-ka-r,  
– V V – – V V – – V V – – V V –  
Fur-qa-ti-ngo' tin-da-ko'-ngil chek-di-si-peHr uz-ra-sha-rar.  
– V V – – V V – – V V – – V V –  
Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun

E'tibor qiling! «Mus-taf' -i-lun» aslining «xabn» va «tayy» ziHoflari bir bayt yoki bir fazalda bir paytning o'zida yuz berishi mumkin. Bunday Hollarda avval qaysi o'zgarish bo'lganiga qarab ikki xilda «maxbuni matviy» Hamda «matviyi maxbun» ko'rinishida ifoda etiladi. Har ikki Holatda Ham aloHida yangi vazn paydo bo'ladi.

Bu dardima chora netay, chu yor dardimni bilur,  
Ishimga ne fikr etay, chu yor fikrimni qilur.

(Bobur)

Bu-dar-di-ma cho-ra-ne-tay, chu-yo-r-dar dim-ni-bi-lur,  
 V – V – – V V – V – V – – V V –  
 I-shim-ga-ne fik-r-e-tay, chu-yo-r-fik rim-ni-qi-lur.  
 V – V – – VV – V – V – – V V –  
 Ma-fo-i-lun Muf-ta-i-lun Ma-fo-i-lun Muf-ta-i-lun

Vazni: bir rukn maxbun, bir rukni matviy. Shuning uchun «Rajazi musammani maxbuni matviy» deb yuritiladi.

Gar alami  $\text{Fa}$  chora yo'q bo'lmasa bo'lmasun netay,  
 Var  $\text{Famima}$  shumora yo'q bo'lmasa bo'lmasun netay.

(Navoiy)

Gar-a-la-mim  $\text{Fa}$ -cho-ra-yo'q bo'l-ma-sa-bo'l ma-sun-ne-tay,  
 – VV – V – V – – V V – V – V –  
 Var- $\text{Fa}$ -mi-ma shu-mo-ra-yo'q bo'l-ma-sa-bo'l ma-sun-ne-tay.  
 – V V – V – V – – V V – V – V –  
 Muf-ta-i-lun Ma-fo-i-lun Muf-ta-i-lun Ma-fo-i-lun

Bu bayt vazni avvalgisidan farqli, oldingi rukn matviy, keyingi rukni maxbun. Shuning uchun «Rajazi musammani matviyi maxbun» deb yuritiladi.

➤ Mus-taf'-i-lon. ( – – V ~ ) «Mus-taf'-i-lun» aslining «izola» - etakni qo'yish yo'li bilan Hosil qilingan ziHof rukn bo'lib, oxirgi cho'ziq rukn «lun» ni o'ta cho'ziq «lon» ga aylangan.

Kel ey pari ruxsorkim Haddin itibdur ishtiyoq,  
 Gar vaslingga etkurmasang o'ltirgusidur firoq.

(Bobur)

Kel-ey-pa-riy rux-so-r-kim Had-di-ni-tib dur ish-ti-yoq,  
 – – V – – – V – – – V – – – V ~  
 Gar-vas-li-ng ga-et-ku-rma sang o'l-ti-rgu si-dur fi-roq.  
 – – V – – – V – – – V – – – V ~

Mus-taf'-i-lun Mus-taf'-i-lun Mus-taf'-i-lun Mus-taf'-i-lon

Vazni: solim, aruz va zarb muzol. «Rajazi musammani muzol» dir.

➤ Ma-fo-i-lon ( V – V ~ ). Bu ziHof rukn «Mus-taf'-i-lun» aslining ikki ziHof o'zgarishga uchrashi so'nggida Hosil bo'lgan. Birinchi, asl rukn «xabn» -

etakni yifish, qisqartirish uchun tikish yo'li bilan (birinchi cho'ziq Hijo «Mus» qisqa Hijo «Mu»ga aylantiriladi, Hosil bo'lgan «Mu-taf'-i-lun» o'ziga teng «Ma-fo-i-lun» ruknida ifoda etiladi.) «Ma-fo-i-lun» Hosil qilingan va bu «izola» - etakni yifish yo'li orqali «Ma-fo-i-lon» ga aylantirilgan. Har ikki o'zgarish ifodasi uchun Maxbuni muzol deb yuritiladi.

Javru jafoni qo'y, da'fi bizga vafo qil ey, nigor,

Lutfu karam qilib, bu dardimfa davo qil ey, nigor.

(Bobur)

Jav-ru-ja-fo ni-qo'y,-da-fi biz-ga-va-fo qi-ley,-ni-gor,  
 - - V - - - V - - - V - V - V ~

Lut-fu-ka-ram qi-lib,-bu-dar Dim-fa-da-vo qil-ey,-ni-gor.  
 - - V - - - V - - - V - V - V ~

Mus-taf'-i-lun Mus-taf'-i-lun Mus-taf'-i-lun Ma-fo-i-lon

Vazni: Solim, aruz va zarb muzol. «Rajazi musammani Maxbuni muzol»dir.

Garchi kam qo'llanilgan bo'lsada ush bu baHrning murabba' va musaddas ko'rinishlariga Ham duch kelinadi. Jumladan, Muqimiy va Zavqiylarning «SayoHatnomalar»i shu baHrning «murabbai solim» Hamda «murabbai muzol» vaznlarida yaratilgan:

Qolmay shaHarda toqatim,

Qishloq chiqardi m odatim.

(Muqimiy)

Qol-may-sha-Har da-to-qa-tim,  
 - - V - - - V -

Qish-loq-chi-qar di-mo-da-tim.  
 - - V - - - V -

Mus-taf'-i-lun Mus-taf'-i-lun

Bobur ush bu baHrning musaddas ko'rinishidagi solim, maxbun, matviy, maxbuni matviy, matviyi maxbun, matviyi muzol singari bir necha vaznlarini misollar asosida ko'rsatadi. Bu o'rinda solim ko'rinishini ko'rsatish bilan cheklanamiz:

Hajringda ey gulcheHra beHad zormen,

Qon ichra Farqa gul kibi afgor men.

(Bobur)

Haj-ring-da-ey gul-cheH-ra-be Had-zo-r-men,  
- - V - - - V - - - V -

Qon-ich-ra-Far qa-gul-ki-bi af-go-r-men.  
- - V - - - V - - - V -

Mus-taf' -i-lun Mus-taf' -i-lun Mus-taf' -i-lun

Rajaz baHriga xos yuqorida keltirilgan ziHof o'zgarishlarni Ham tartibi bilan keltiramiz. Imkon qadar esda saqlashga Harakat qilish lozim bo'ladi.

1. Ma-fo-i-lun. Mus-taf' -i-lun «xabn» (etakni yiFish) ⇨

mu-taf' -i-lun ⇨ ma-fo-i-lun. Maxbun

2. Muf-ta-i-lun. Mus-taf' -i-lun «tayy» (yiFish) ⇨

mus-ta- i-lun ⇨ muf-ta-i-lun. Matviy

3. Ma-fo-i-lun. Mus-taf' -i-lun «muzol» (etakni qo'yish) ⇨

mu-taf' -i-lun ⇨ ma-fo-i-lun. Muzol.

4. Ma-fo-i-lon. Mus-taf' -i-lun «xabn» (etakni yiFish) ⇨

ma-fo-i-lun, «izola» ma-fo-i-lon Maxbuni muzol.

Tayanch so'zlar:

1. Tavr - surat, Hol.

3. SipeHr – osmon.

2. Nek – yaxshi, go'zal.

4. Sharar - uchqun

Savollar:

1. Rajaz so'zi qanday ma'no anglatadi?

2. Rajaz baHri qaysi asl rukn takroriga asoslanadi?

3. Rajaz baHrining murabba' va musamman tarmoqlari qanday?

4. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vazni ko'rsatadi?

5. Rajaz baHri qanday ziHof ruknlarga ega va ular qanday Hosil qilingan?

6. Asl rukn bir paytning o'zida bir necha o'zgarishlarga uchrashi mumkinmi?

5. Ramal baHri (fo-i-lo-tun) ziHoflari

Ramal baHri (arabcha- tuyani lo'kkillashi degan ma'noni beradi.) «fo-i-lo-tun» aslining takroridan Hosil qilingan, Sharq she'riyatida, xususan, o'zbek she'riyatidagi eng ko'p qo'llanilgan vazn Hisoblanadi. Musaddas va musamman ko'rinishlarda keladi. «Mezon ul-avzon» da bu baHrning 13 ta, «Muxtasar»da 59 ta vazni keltiriladi. Shulardan 42 tasidan keng foydalanilgan. Ular «fo-i-lo-tun» asli, Hamda shu rukndan Hosil bo'lgan ziHof ruknlarning turlicha takrorlanishiga asoslanadi. Shuningdek, ularning 6 tasi bir o'zgarish, 4 tasi ikki xilda o'zgarishlarga uchrashidan Hosil bo'lgan.

➤Fo-i-lun. ( – V – ) Asl ruknning «Hazf» ( tashlash ) ziHofiga uchrashidan yuzaga kelgan, juda ko'p uchraydigan ziHof rukn Hisoblanadi. «fo-i-lo-tun» dan oxirgi Hijo «lun» tashlangach, «fo-i-lo» qoladi va bu o'ziga teng «fo-i-lun» tarzida ifoda etiladi. MaHzuf deb yuritiladi.

Uyquda bir kun visolingni ko'rar kun bormukin,  
SubHi xurshidi jamolingni ko'rar kun bormukin.

(Nodira)

Uy-qu-da-bir    kun-vi-so-ling    ni-ko'-rar-kun    bor-mu-kin,  
– V – –    – V – –    – V – –    – V – –  
Sub-Hi-xur-shi    di-ja-mo-ling    ni-ko'-rar-kun    bor-mu-kin.  
– V – –    – V – –    – V – –    – V – –  
fo-i-lo-tun    fo-i-lo-tun    fo-i-lo-tun    fo-i-lun

Vazn ifodasi: Solim, aruz va zarb maHzuf. «Ramali musammani maHzuf».

➤Fa-i-lo-tun ( V V – – ). Asl ruknning «xabn» (qisqartirish) yo'li bilan Hosil qilingan. Birinchi cho'ziq Hijo «fo» qisqa «fa»ga aylantirilgan. Maxbun deyiladi.

Ishq tarkiga qilursen tunu kunko'ngli ma tuHmat,  
Ki, otin tutmaFay el, tutsa bir oin bila shuHrat.

(Navoiy)

I-shq-tar-ki    ga-qi-lur-sen    tu-nu-kun-ko'ng    li-ma-tuH-mat,  
– V – –    V V – –    – V – –    V V – –

Ki,-o-tin-tut ma<sub>F</sub>a-yel,-tut sa-bi-ro-in bi-la-shuH rat.  
 - V - - V V - - - V - - V V - -  
 fo-i-lo-tun fa-i-lo-tun fo-i-lo-tun fa-i-lo-tun

Vazn ifodasi: Bir rukn solim, bir rukni maxbun. «Ramali musammani maxbun».

➤Fo-i-lo-tu. ( - V - V ) «Kaff» (qaytarish), ya'ni «fo-i-lo-tun» dan oxirgi cho'xiq Hijo «lun» ni qisqa Hijo «lu»ga qaytarishdan Hosil bo'lgan ziHof rukndir. Makfuf deb yuritiladi.

Kim qilur vafo meningcha, kim chekar jafo meningcha,  
 Kimdadur safo seningcha, kimdadur balo seningcha.

(Bobur)

Kim-qi-lur-va fo-me-ning-cha, kim-che-kar-ja fo-me-ning-cha,  
 - V - V - V - V - V - V - V - -  
 Kim-da-dur-sa fo-se-ning-cha, kim-da-dur-ba lo-se-ning-cha.  
 - V - V - V - V - V - V - V - -  
 fo-i-lo-tu fo-i-lo-tu fo-i-lo-tu fo-i-lo-tun

Vazn ifodasi: makfuf, aruz vaz arb solim. «Ramali musammani solimi makfuf».

➤Fa-i-lo-tu. (V V - V) Bu rukn «fo-i-lo-tun» aslini «shakl» (tushovlash), ya'ni birinchi «fo» va to'rtinchi «tun» cho'ziq Hijolarni qisqa Hijo «fa va tu»ga aylantirilishi so'ngida Hosil bo'lgan ziHof rukn Hisoblanadi. Mashkul deb yuritiladi.

Yana sho''lali<sub>F</sub> ko'ngilni <sub>F</sub>aming etti pora-pora,  
 Buki butrashur, erur poralari emas sharora.

(Navoiy)

Ya-na-sho''-la li<sub>F</sub>-ko'-ngil-ni <sub>F</sub>a-mi-nget-ti po-ra-po-ra,  
 V V - V - V - - V V - V - V - -  
 Bu-ki-but-ra shur,-e-rur-po- Ra-la-ri-e mas-sha-ro-ra.  
 V V - V - V - - V V - V - V - -  
 fa-i-lo-tu fo-i-lo-tun fa-i-lo-tu fo-i-lo-tun

Vazn ifodasi: bir rukn mashkul, bir rukni solim. «Ramali musammani solimi mashkul».

➤Fo-i-lo-ton yoki fo-i-liy-yon ( – V – ~ ) Bunda «fo-i-lo-tun» aslining oxirgi cho'ziq Hijosi «tun» «tasbiF» - to'ldirish usulida o'ta cho'ziq Hijo «ton»ga aylantiriladi. MusabbaF deb yuritiladi.

VaH necha jismimni Famdin notavon etgay firoqing,

Notavon jismimFa Har dam qasdi jon etgay firoqing.

(Bobur)

VaH-ne-cha-jis mim-ni-Fam-din no-ta-von et gay-fi-ro-qing,  
 – V – – – V – – – V – – – V – ~

No-ta-von-jis mim-Fa-Har-dam qas-di-jon-et gay-fi-ro-qing.  
 – V – – – V – – – V – – – V – ~

fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-liy-yon

Vazn ifodasi: solim, aruz va zarb musabbaF. «Ramali musammani solimi musabbaF».

➤Fo-i-lot yoki fo-i-lon ( – V ~ ). Asl rukn «fo-i-lo-tun»ning «qasr»-qisqartirish ziHofiga uchrashi – oxirgi Hijo «tun»dan «un» qismi tushiriladi, qolgan qismi Fo-i-lot yoki fo-i-lon qisqargan ma'nosida Maqsur deyiladi.

Dilrabo, la'ling sharobi obi kavsardin latif,

Qomating naxli doFi sarvu sanubardin latif.

(Atoiy)

Dil-ra-bo,-la' ling-sha-ro-bi o-bi-kav-sar din-la-tif,  
 – V – – – V – – – V – – – V ~

Qo-ma-ting-nax li-da-Fi-sar vu-sa-nu-bar din-la-tif.  
 – V – – – V – – – V – – – V ~

fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lon

Vazn ifodasi: solim, aruz va zarb maqsur. «Ramali musammani solimi maqsur».

E'tibor qiling! Ramal baHriga tegishli keltirganimiz 6 ziHof ruknda «fo-i-lo-tun» asli bir xil (son yo sifat) o'zgarishlarga uchragan. Qolgan «fa-i-lon, fa-i-lun, fa-i-liy-yon, fa'-lon» lardan iborat 4 rukn bu 6 rukndan jiddiy farq qiladi. Chunki, bular «fo-i-lo-tun» aslining o'zgarishga uchrashidan emas, balki uning o'zgargan ko'rinishi ziHof ruknlarning yana qayta o'zgarishidan Hosil bo'lgan

tarmoq ruknlar Hisoblanadi. Shuning uchun vazn ifodasi «maxbuni maqsur» tarzida ikki xil nom bilan ataladi. Boshqacha aytganda rukn bitta, ammo shu bir rukn ikki xil o'zgarish natijasida yuzaga kelganligi uchun atalishi ikkita nomda bo'ladi. Bu tarmoq ruknlar «solimi maxbun» Hamda «maxbun» deb ataluvchi ikki xil shoxobchaga bo'linadi. «Solimi maxbun» deyilishiga sabab ruknlarning birida asl rukn «fo-i-lo-tun» o'zgarishsiz ishtirok etadi. «Maxbun» tarmoqida esa asl rukn qatnashmaydi, uning o'rnida Ham maxbun ziHof rukni «fa-i-lo-tun» keladi. Ifodada «Solimi muxbuni maHzuf», «Maxbuni maHzuf» tarzida ko'rsatiladi.

➤Fa - i - lon ( V V ~). «Fo-i-lo-tun» aslini «qasr» ziHofiga uchrashidan Hosil bo'lgan «fo-i-lon» yana «xabn» ziHofiga uchraydi va birinchi Hijosi cho'ziq «fo» qisqa «fa»ga o'zgaradi. Maxbuni maqsur deb yuritiladi.

Ayladim tun kecha xilvat aro jonon bila bazm,  
Qil<sub>F</sub>ay ul nav'iki, bir xasta badan jon bila bazm.

(OgaHiy)

Ay-la-dim-tun ke-cha-xil-vat a-ro-jo-non bi-la-bazm,  
- V - - V V - - - V - - - V ~  
Qil<sub>F</sub>ayul-nav' i-ki,-bir-xas ta-ba-dan-jon bi-la-bazm.  
- V - - V V - - - V - - - V ~  
fo-i-lo-tun fa-i-lo-tun fo-i-lo-tun fa-i-lon

Vazn ifodasi: solim, Hashv maxbun, aruz va zarb maxbuni maqsur. «Ramali musammani solimi maxbuni maqsur».

➤Fa-i-lun ( V V - ). «Fo-i-lo-tun» aslining maHzuf ko'rinishi «fo-i-lun»ning yana «xabn» o'zgarishiga uchrashi, birinchi cho'ziq «fo»ni qisqa «fa»ga aylantirilishi. Maxbuni maHzuf deyiladi.

Yor kelgach manga dushman bo'lurin bilmas edim,  
Yo'qsa tun-kun tilabon vasl, duo qilmas edim.

(Navoiy)

Yo - r - ke - lgach ma - nga - dush - man bo' - lu - rin - bil ma - se - dim,  
- V - - V V - - V V - - V V -



Yo'q-sa-tun-kun ti-la-bon-va sl,-du-o-qil- ma-se-dim.  
 - V - - V V - - V V - - V V -  
 fo-i-lo-tun fa-i-lo-tun fa-i-lo-tun fa-i-lun

Vazn ifodasi: solim, Hashv maxbun, aruz va zarb maxbuni maqsur. «Ramali musammani solimi maxbuni maHzuf».

➤Fa-i-liy-yon ( V V- ~ ). «Fo-i-lo-tun» aslining musabbaF ko'rinishi «fo-i-liy-yon»ni yana «xabn» ziHofiga uchrashi, birinchi cho'ziq «fo» qisqa «fa» ga aylangan. Maxbuni musabbaF deyiladi.

➤Fa'-lon ( - ~ ). «Fo-i-lo-tun» aslining maqtu' ko'rinishi «fa'-lun» «tasbiF» ziHofiga uchraydi. Ikkinchi cho'ziq «lun» o'ta cho'ziq «lon»ga aylantiriladi. Maqtu'i musabbaF deyiladi.

Iydi jon topFay edim keshida bo'lsam qurbon,  
 Chun oning dardi erur xasta ko'ngilga darmon.

(H.Xorazmiy.)

Iy-di-jon-top fa-ye-dim-ke shi-da-bo'l-sam qur-bon,  
 - V - - V V - - V V - - - ~  
 Chun-o-ning-dar di-e-rur-xas ta-ko'-ngil-ga dar-mon.  
 - V - - V V - - V V - - - ~  
 fo-i-lo-tun fa-i-lo-tun fa-i-lo-tun fa'-lon

Vazn ifodasi: solim, Hashv maxbun, aruz va zarb maqtu'i musabbaF. «Ramali musammani solimi maxbuni maqtu'i musabbaF».

Keltirilgan vaznlar ramal baHrining musaddas ko'rinishlariga Ham bevosita tegishli. Shu sababdan ularning ayrimlarigagina murojaat etamiz.

Ey jamolingdin xijil xurshidi anvar,  
 Qomatingdin munfa'il sarvu sanavbar.

(Navoiy)

Ey-ja-mo-ling din-xi-jil-xur shi-di-an-var,  
 - V - - - V - - - V - -  
 Qo-ma-tin-din mun-fa'-il-sar vu-sa-nav-bar.  
 - V - - - V - - - V - -  
 fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun

Vazn ifodasi: «Ramali musaddasi solimi».

Tushdi savdoyi muHabbat boshima,

Or etar mardum kelurfa qoshima.

(Mashrab)

Tush-di-sav-do    yi-mu-Hab-bat    bo-shi-ma,  
- V - - - V - -    - V -

O-re-tar-mar    dum-ke-lur-fa    qo-shi-ma.  
- V - -    - V - -    - V -

fo-i-lo-tun    fo-i-lo-tun    fo-i-lun

Vazn ifodasi: «Ramali musaddasi maHzuf».

### Ramal baHriga xos ziHof o'zgarishlarning jamlangan ko'rinishi:

1. Fo-i-lun. Fo-i-lo-tun. «Hazf» (tashlash)- fo-i-lo – «fo-i-lun». MaHzuf.
2. Fa-i-lo-tun. Fo-i-lo-tun. «xabn» (qisqar-sh) - fa-i-lo-tun. Maxbun.
3. Fo-i-lo-tu. Fo-i-lo-tun. «kaff» (qaytarish) - fo-i-lo-tu. Makfuf.
4. Fa-i-lo-tu. Fo-i-lo-tun. «shakl» (tushov-sh) - fa-i-lo-tu. Mashkul.
5. Fo-i-lo-ton. Fo-i-lo-tun. «tasbiF» (to'ldirish) - fo-i-lo-ton. Musabbar.
6. Fo-i-lon. Fo-i-lo-tun. «qasr» (qisqa qi-sh)- fo-i-lot– «fo-i-lon». Maqsur.
7. Fa'-lun      Fo-i-lo-tun. «qat'» (kesish)- fo-i – «fa'-lun». Maqtu'.

8. Fa-i-lon. Fo-i-lo-tun. «qasr» (qisqa qi-sh)- fo-i-lot – «fo-i-lon» dan «xabn» (qisqa-sh) «fa-i-lon». Maxbuni maqsur.
10. Fa-i-lun. Fo-i-lo-tun. «Hazf» (tashlash)- fo-i-lo q «fo-i-lun»dan «xabn»(qisqa-sh) «fa-i-lun». Maxbuni maHzuf.
11. Fa-i-liy-yon. Fo-i-lo-tun. «tasbiF» (to'ldirish) – «fo-i-lo-ton» dan «xabn»(qisqa-sh) «fa-i-liy-yon». Maxbuni musabbaF.
12. Fa'-lon Fo-i-lo-tun. «qat'» (kesish)- fo-i – «fa'-lun»dan tasbiF» (to'ldirish) Fa'-lon. Maqtu'i musabbaF.

Tayanch so'zlar:

- |                            |                          |
|----------------------------|--------------------------|
| 1. Oin – odat, tarz        | 4. Naxl – ko'chat.       |
| 2. Butramak – tarqamoq.    | 5. Munfail – Hijolatli.  |
| 3. Obi kavsar – Jan. suvi. | 6. Mardum – kishi, xalq. |

Savollar:

1. Ramal so'zi qanday ma'no anglatadi?
2. Ramal baHri qaysi asl rukn takroriga asoslanadi?
3. Ramal baHrining murabba' va musamman tarmoqlari qanday?
4. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vazni ko'rsatadi?
5. Ramal baHri qanday ziHof ruknlarga ega va ular qanday Hosil qilingan?
6. Vazn ifodasida «msaxbuni maqsur», «maxbun maHzuf» kabilar nimani anglatadi?

## 6. Mujtass baHri (Mus-taf'-i-lun Q fo-i-lo-tun) ziHoflari

Mujtass (arabcha - yulinish) baHri qo'shaloq ruknli baHrlardan bo'lib, «Mus-taf'-i-lun» va «fo-i-lo-tun» asllarining birgalikdagi takrorlanishidan Hosil bo'ladi. «Mezon ul-avzon» da to'qqiz, «Muxtasar» da yigirma vazni qayd etiladi. Shulardan esa 5 tasi mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilib kelingan.

➤Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun. ( V – V – Q V V – – ). Mujtass baHriga tegishli ushbu tarmoq ruknning birinchi rukni ma-fo-i-lun «mus-taf'-i-lun» aslining «xabn» – etakni yiFish, qisqartirish uchun tikish, ya'ni birinchi cho'ziq

Hijo «mus» qisqa Hijo «mu»ga aylantiriladi, Hosil bo'lgan «mu-taf'-i-lun» o'ziga teng «ma-fo-i-lun» ruknida ifoda etilishi, ikkinchi rukn fa-i-lo-tun «fo-i-lo-tun» aslining «xabn» ziHofiga uchrashi, ya'ni birinchi cho'ziq Hijo «fo» ni qisqa Hijo «fa»ga aylantirilishidan Hosil bo'lgan ziHof ruknlar Hisoblanishadi. Har ikki asl rukn «xabn» usulida o'zgarishga uchraganligi uchun maxbun deyiladi.

Ko'zung xayolida yo'qtur balodin o'zga musoHib,

Visoling orzusida Ham duodin o'zga musoHib.

(Atoiy)

Ko'-zung-xa-yo	li-da-yo'q-tur	ba-lo-di-no'z	ga-mu-so-Hib,
V - V -	VV - -	V - V -	VV - -
Vi-so-li-ngor	zu-si-da-Ham	du-o-di-no'z	ga-mu-so-Hib.
V - V -	VV - -	V - V -	VV - -
Ma-fo-i-lun	fa-i-lo-tun	Ma-fo-i-lun	fa-i-lo-tun

Vazn ifodasi: (maxbun) «Mujtassi musammani maxbun».

Shu o'rinda ta'kidlamoqchimizki, bundan keyin keladigan «Ma-fo-i-lun», «fa-i-lo-tun» ruknlarini izoHsiz keltiramiz. Bulardagi fa-i-lun, fa-i-lon, fa'-lun, fa'-lon ziHoflari «xabn» tarmo'i sifatida takrorlanib kelaveradi.

➤ Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun - fa-i-lun. (V - V - Q V V - - Q V V -)

Bu erda fa-i-lun «fo-i-lo-tun» aslining maxbuni maxzuf tarmo'i Hisoblanadi. Ya'ni, «Fo-i-lo-tun» asl rukni «Hafz» (tashlash) ziHofiga uchrashi so'ngida qolgan fo-i-lo o'rniga ifoda uchun qabul qilingan «fo-i-lun»ning yana «xabn» (qisqa-sh) ziHofiga uchrashi natijasida Hosil bo'lgan rukndir.

Nigori gulbadanimni tushimda ko'rsam edim,

Labi shakarshikanimni tushimda ko'rsam edim.

(Nodira)

Ni-go-ri-gul	ba-da-nim-ni	tu-shim-da-ko'r	sa-me-dim,
V - V -	VV - -	V - V -	- V -
La-bi-sha-kar	shi-ka-nim-ni	tu-shim-da-ko'r	sa-me-dim.
V - V -	VV - -	V - V -	- V -
Ma-fo-i-lun	fa-i-lo-tun	Ma-fo-i-lun	fa-i-lun

Vazn ifodasi: (maxbun, aruz va zarb maxbuni maHzuf) «Mujtassi musammani maxbuni maHzuf».

➤ Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun - fa-i-lon. (V – V – V V – – V V ~)

Ushbu ruknli baytlarning vazni oldingi baytdan «fa-i-lun» – maxbuni maHzuf o'rnida «fa-i-lon» – maxbuni maqsur ruknining o'rin almashib kelishi bilan farqlanadi. («Fo-i-lo-tun» asli «qasr» (qisqa qi-sh) ziHofiga uchrashi natijasida oxirgi Hijo «tun»ning «un» qismi olib tashlanadi. «fo-i-lot» qoladi. Baytlarda «fo-i-lot», «fo-i-lon» almashtirib qullanaveradi. «fa-i-lon» shu ziHof ruknlarning yana «xabn» (qisqa-sh) o'zgarishiga uchragan ko'rinishi Hisoblanadi.

Ramida ko'nglim erur ishq mubtalosi Hanuz,  
Boshimda bor ul sarv qad Havosi Hanuz.

(Navoiy)

Ra-mi-da-ko'ng li-me-rur-ish q-mub-ta-lo si-Ha-nuz,  
V – V – V V – – V – V – V V ~

Bo-shim-da-bo r-du-rul-sar v-qad-Ha-vo si-Ha-nuz.  
V – V – V V – – V – V – V V ~

Ma-fo-i-lun fa-i-lo-tun Ma-fo-i-lun fa-i-lon

Vazn ifodasi: (maxbun, aruz va zarb maxbuni maqsur) «Mujtassi musammani maxbuni maqsur» deyiladi.

➤ Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun - fa-i-liy-yon. (V – V – Q V V – – Q V V ~)

Bu erdagi fa-i-liy-yon «Fo-i-lo-tun» aslining «tasbi<sub>F</sub>» (to'ldirish) ziHofiga uchrashi so'ngida Hosil bo'lgan «fo-i-lo-ton» ziHofining yana «xabn» (qisqa-sh)ga duch kelishidir. Maxbuni musabba<sub>F</sub> deyiladi.

Yuzi gulu sochi sunbul, xadi suman, xati rayHon,  
Lab uzra xati zumrad, xat ichra labi marjon.

(Bobur)

Yu-zi-gu-lu so-chi-sun-bul, xa-di-su-man, xa-ti-ray-Hon,  
V – V – V V – – V V – – V V – ~

La-bu-z-ra xa-ti-zum-rad, xa-tich-ra-lab la-ri-mar-jon.  
 V – V – V V – – V V – – V V – ~

Ma-fo-i-lun fa-i-lo-tun - fa-i-lo-tun fa-i-liy-yon

Vazn ifodasi: (maxbun, aruz va zarb maxbuni musabbaF) «Mujtassi musammani maxbuni musabbaF» deyiladi.

➤ Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun - fa'-lun. ( V – V – V V – – – )

Fa' – lun «Fo-i-lo-tun» aslining «qat'» (kesish) ziHofiga duch kelishi bo'lib «Fo-i-lo-tun»dan lo-tun qismi kesiladi fo-i qoladi va bundan qisqa Hijo «i» cho'ziqqa aylantiriladi. Hosil bo'lgan fo-iy «fa'-lun» tarzida istifoda etiladi.

Qaro ko'zum kelu mardumliF emdi fan qilFil,

Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilFil.

(Navoiy)

Qa-ro-ko'-zum ke-lu-mar-dum li-Fem-di-fan qil-Fil,  
 V – V – V V – – V – V – – –  
 Ko'-zum-qa-ro si-da-mar-dum ki-bi-va-tan qil-Fil.  
 V – V – V V – – V – V – – –  
 Ma-fo-i-lun fa-i-lo-tun Ma-fo-i-lun fa'-lun

Vazn ifodasi: (maxbun, aruz va zarb maqtu') «Mujtassi musammani maxbuni maqtu'» deyiladi.

➤ Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun - fa'-lon. ( V – V – V V – – – ~ )

Fa'-lon yuqorida keltirganimiz «fa' – lun»ning yana «tasbiF» – to'ldirish ziHofiga uchrashi natijasi bo'lib, maqtui musabbaF deb yuritiladi.

Qiyο-qiyο boqishing banda qildi ey dildor,

Tabassum aylaganing oldi sabr birla qaror.

(Furqat)

Qi-yo-qi-yo bo-qi-shing-ban da-qil-di-ey dil-dor,  
 V – V – V V – – V – V – – ~  
 Ta-bas-su-may la-ga-ning-ol di-sabr-bi-rla qa-ror.  
 V – V – V V – – V – V – – ~  
 Ma-fo-i-lun fa-i-lo-tun Ma-fo-i-lun fa'-lon

Vazn ifodasi: maxbun, aruz va zarb maqtu'i musabbar. «Mujtassi musammani maxbuni maqtui musabbar».

Mujtass baHriga tegishli ziHof o'zgarishlar ning jamlangan  
ko'rinishi:

1. Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun.

«Mus-taf' -i-lun» «xabn»- etakni yiFish dan Mu-taf' -i-lun q Ma-fo-i-lun «fo-i-lo-tun» «xabn» q fa-i-lo-tun. Maxbun.

2. Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun – fa-i-lun.

«Mus-taf' -i-lun» dan «xabn» Ma-fo-i-lun,  
«fo-i-lo-tun» dan «xabn» fa-i-lo-tun,  
«fo-i-lo-tun» dan «Hazf» (tashlash)- fo-i-lo q «fo-i-lun».  
Fo-i-lun dan «xabn» fa-i-lun. Maxbuni maHzuf.

3. Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun – fa-i-lon

«Mus-taf' -i-lun» dan «xabn» Ma-fo-i-lun,  
«fo-i-lo-tun» dan «xabn» fa-i-lo-tun,  
«fo-i-lo-tun» dan «qasr» (qisqa qi-sh)- fo-i-lot q «fo-i-lon»  
fo-i-lon dan «xabn» (qisqa-sh) «fa-i-lon».) Maxbuni maqsur

4. Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun – fa-i-liy-yon

«Mus-taf' -i-lun» dan «xabn» Ma-fo-i-lun,  
«fo-i-lo-tun» dan «xabn» fa-i-lo-tun,  
Fo-i-lo-tun dan «tasbiF» – «fo-i-lo-ton» dan «xabn» «fa-i-liy-yon».  
Maxbuni musabbar.

5. Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun – fa' -lun

«Mus-taf' -i-lun» dan «xabn» Ma-fo-i-lun,  
«fo-i-lo-tun» dan «xabn» fa-i-lo-tun,  
«Fo-i-lo-tun» dan «qat' » (kesish)- fo-i q «fa' -lun» Maxbuni maqtu'.

6. Ma-fo-i-lun Q fa-i-lo-tun – fa' -lon

«Mus-taf' -i-lun» dan «xabn» Ma-fo-i-lun,  
«fo-i-lo-tun» dan «xabn» fa-i-lo-tun,

«Fo-i-lo-tun» dan «qat' »-fo-iq «fa' -lun»dan «tasbiF» Fa' -lon.

Maxbuni maqtu'.

Tayanch so' zlar:

1. MusoHib- do' st.
2. Shakarshikan- shirin so' z.
3. Ramida- Hurkkan, cho' chigan.

Savollar:

Mujtass so' zi qanday ma' no anglatadi?

Mujtass baHri qaysi asl ruknlarning qanday takroriga asoslanadi?

8. Mujtass baHriga xos ko' pvazinlilik deyilganda nima tushiniladi?

9. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo' rliq nechta vazni ko' rsatadi va ularning nechtasidan ko' piroq foydalanib kelingan?

Mujtass baHri qanday ziHof ruknlarga ega va ular qanday Hosil qilingan?

Mujtass baHrida uning ziHof ruknlari birgalikda qo' llanilishi mumkinmi?

### 7. Xafif baHri (fo-i-lo-tun Q mus-taf' -i-lun) ziHoflari

Hafif (arabcha – engil.) baHri «fo-i-lo-tun» va «mus-taf' -i-lun» asllarining birgalikda takroriga asoslanadi. Navoiy ushbu baHrning 5 ta vaznini, Bobur 22 ta vaznini ko' rsatadi. She' riyatimizda bu baHrning musaddas shakli keng qo' llanilib kelingan. Fazal, qit' a, fard kabi lirik janrlar barobarida dostonlar, jumladan Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostoni shu vaznda yaratilgan. Bu baHr «solimi maxbun» va «maxbun» tarmoqlariga ega bo' lib, tarmoq ichiga kiruvchi ruknlar bir-biridan u darajada jiddiy farq qilmaydi, birgalikda qo' llanaveradi. Natijada baHrga xos ko' pvazinlilik xususiyati yuzaga kelgan. Quyida ushbu baHrning solim, solimi maxbun va maxbun o' lchovlarini misollar asosida kuzatamiz:

Qayda erding ey maHvashim, sharH qilFil,

O' l gum erdi gar bir zamon kelmasang bil.

(Bobur).

Qay-da-er-ding	ey-maH-va-shim,	shar-H-qil-Fil,
- V - -	- - V -	- V - -
O' l-gu-mer-di	gar-bir-za-mon	kel-ma-sang-bil.
- V - -	- - V -	- V - -



fo-i-lo-tun            mus-taf'-i-lun            fo-i-lo-tun

Sizga ma'lumki, baHrni yuzaga keltiruvchi ruknlar o'zgarishsiz takrorlansa solim (soflom) deyiladi. Shundan ushbu bayt vazni: «Xafifi musaddasi solim» bo'ladi. Bu baHrning tarmoq ruknlari asl ruknlarning yuqorida ko'rganimiz maxbun, matviy, maHzuf, maqsur, maqtu', maqtu'i musabba singari ziHoflardan tashkil topadi. Ular solimi maxbun va maxbun tarmoqlaridir. Avval solimi maxbun, keyin maxbun tarmoqiga misol keltiramiz.

Vaslin ul oy manga maHol qilibdur,  
Hajridin meni xastaHol qilibdur.

(Bobur)

Vas-li-nul-oy	ma-nga-ma-Ho	I-qi-lib-dur,
- V - -	V - V -	V V - -
Haj-ri-din-me	ni-xas-ta-Ho	I-qi-lib-dur.
- V - -	V - V -	V V - -
fo-i-lo-tun	ma-fo-i-lun	fa-i-lo-tun

Baytning vazni «Xafifi musaddasi solimi maxbun» bo'ladi. Sababi, asl ruknlardan biri «fo-i-lo-tun» o'zgarmagan – soflom. Qolgan ikki rukn «xabn» ziHofiga uchragan. Ikkinchi rukn ma-fo-i-lun «mustaf'ilun» aslining «xabn» qilinishi – birinchi cho'ziq Hijoni qisqaga o'zgarishi natijasida qolgan mu-taf'-i-lun ga teng vazn o'rnida qabul qilingan rukn, uchinchi rukn fa-i-lo-tun «fo-i-lo-tun» aslining «xabn» qilinishi-birinchi Hijo «fo» ni qisqarishidan Hosil bo'lgan. Shuning uchun avval solim, so'ng maxbun birgalikda solimi maxbun deyiladi.

➤ Fo-i-lo-tun Q ma-fo-i-lun Q fa-i-lun. (- V - - V-V - V V - -)

Ushbu vazn she'riyatimizda ancha keng qo'llangan. Fo-i-lo-tun aslining ishtiroki tufayli «solimi maxbun»ga mansub vazn Hisoblanadi, ammo (birinchi ikki rukn Haqida yuqorida to'xtaldik.) Uchinchi rukn fa-i-lun «fo-i-lo-tun» aslining avval «Hazf», so'ngra «xabn» o'zgarishlariga uchrashidan Hosil bo'lgan. (Eslang! «Fo-i-lo-tun»dan «Hazf» (tashlash) so'ngida fo-i-lo qoladi, bunga teng «fo-i-lun» olinadi. «Fo-i-lun»ning yana «xabn» (qisqa-sh) o'zgarishiga uchrashidan «fa-i-lun» yuzaga keladi).

Yutubon bu zamonda qon shuaro,

Nazm etar gavHari fiFon shuaro.

(Munis)

Yu-tu-bon-bu za-mon-da-qon shu-a-ro,  
- V - - V - V - V V -  
Naz-me-tar-gav Ha-ri-fi-Fon shu-a-ro.  
- V - - V - V - V V -  
Fo-i-lo-tun ma-fo-i-lun fa-i-lun.

Vazn ifodasi: bir rukn solim, bir rukn maxbun, bir rukn maxbuni maHzuf. «Xafifi musaddasi solimi maxbuni maHzuf» bo'ladi.

➤ Fa-i-lo-tun Q ma-fo-i-lun Q fa-i-lun. ( V V - - V - V - V V - ).

E'tibor qilinsa, ush bu vazn oldingi vazndagi «fo-i-lo-tun» o'rnida uning «xabn» ziHofiga uchragan ko'rinishi «fa-i-lo-tun»ning kelishi bilan farqlanadi. Natijada barcha ruknlar «xabn» qilish orqali o'zgargan ziHof ruknlardan iborat bo'lib qolmoqda. Shuning uchun bunday vazn Xafif baHrining solimi maxbun emas, maxbun tarmoFi deyiladi.

GaHi yuzni qaroqi oli bila,  
Jigarim qonidin qilar jigari.

(Lutfiy)

Ga-Hi-yuz-ni qa-ro-qi-o li-bi-la,  
V V - - V - V - V V -  
Ji-ga-rim-qo ni-din-qi-lar ji-ga-ri.  
V V - - V - V - V V -  
Fa-i-lo-tun ma-fo-i-lun fa-i-lun.

Vazn ifodasi: «Xafifi musaddasi maxbuni maHzuf».

Xafif baHriga tegishli ziHof o'zgarishlarning jamlangan ko'rinishi:

1. Fo-i-lo-tun Q ma-fo-i-lun Q fa-i-lun.

Fo-i-lo-tun – solim.«Mustaf' ilun» dan «xabn» - mu-taf' -i-lun q ma-fo-i-lun.

«Fo-i-lo-tun»dan «Hazf»-fo-i-lo q fo-i-lun, fo-i-lundan «xabn»-fa-i-lun. Solimi maxbuni maHzuf.

2. Fa-i-lo-tun Q ma-fo-i-lun Q fa-i-lun.

«Fo-i-lo-tun»dan «xabn» fa-i-lo-tun,  
«Mus-taf' -i-lun»dan «xabn» ma-fo-i-lun,  
«Fo-i-lo-tun»dan «Hafz» - fo-i-lo q «fo-i-lun».

Fo-i-lundan «xabn» fa-i-lun. Maxbuni maHzuf.

### Savollar:

1. Xafif so'zi qanday ma'no anglatadi?
2. Xafif baHri qaysi asl ruknlarning qanday takroriga asoslanadi?
3. Xafif baHriga xos ko'pvazinlilik qanday asarlarda, qanday ko'rinishlarda uchraydi?
4. Navoiy va Bobur ush bu baHr bilan bo'liq nechta vazni ko'rsatadi va ularning nechtasidan ko'piroq foydalanib kelingan?
5. Xafif baHrining necha ruknli vazn qo'llanilgan?
6. Xafif baHri qanday tarmoqlarga bo'linadi?
7. Xafif baHri tarmoq ruknlari birgalikda qo'llanilishi mumkinmi?

### 8. Muzori' baHri (ma-fo-iy-lun Q fo-i-lo-tun) ziHoflari

Muzori' (arabcha - o'xshash) baHri «ma-fo-iy-lun» va «fo-i-lo-tun» asllarini takroridan Hosil bo'lgan baHr Hisoblanadi. Bu baHrning «Mezon ul avzon» da 12 ta, «Muxtasar» da 24 ta vazni borligi aytiladi. Mumtoz she'iyatimizda ushbu baHrning sakkiz ruknli to'rt o'lchovidan keng foydalanilgan.

➤ Maf' -u-lu Q fo-i-lo-tun. ( – – V Q – V – – ). Birinchi rukn «ma-fo-iy-lun» aslining «xarb»-vayron qilish (birinchi qisqa Hijo «ma»tushirilgch «fo-iy-lun» qogan va bundan oxirgi cho'ziq Hijo «lun» qisqa «lu»ga aylantirilgan va Hosil bo'lgan fo-iy-lu ga teng maf' -u-lu olingan.) yo'li bilan Hosil qilingan ziHof rukn, ikkinchisi «fo-i-lo-tun» o'zgarishsiz – solim rukn. Bunday vazn quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Huru pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik,  
Jannat gulidin, ey gul, gulzoringiz chiroylik.

(Furqat)

Hu-ru-pa ri-yu-zi-din rux-so-ri ngiz-chi-roy-lik,  
 – – V – V – – – – V – V – –  
 Jan-nat-gu li-di-ney-gul, gul-zo-ri ngiz-chi-roy-lik.  
 – – V – V – – – – V – V – –  
 Maf'-u-lu fo-i-lo-tun Maf'-u-lu fo-i-lo-tun

Vazn ifodasi: (bir rukn axrab, bir rukn solim) «Muzori'i musammani solimi axrab».

➤ Ma-fo-iy-lu Q fo-i-lo-tu Q fo-i-lun (V – – V – V – V –).

Bunda ruknlar yuqorida keltirilgan vazndan farqli Har uchovi Ham o'zgarishga uchragan ziHof rukn. Birinchi, ikkinchi ruknlar «ma-fo-iy-lun» va «fo-i-lo-tun» asllarining «kaff» - qaytarish (oxirgi cho'ziq Hijo «lun» ning «lu» shaklida qisqaga aylantirilishi) o'zgarishiga, uchinchi «fo-i-lo-tun» aslining «Hazf» - tashlash (oxirgi cho'ziq Hijo «lun» tushirilgan va qolgan «fo-i-lo» ga teng fo-i-lun olingan) o'zgarishiga uchrashidan Hosil qilingan.

Meni ishq dilfigor agar qilsa ne qilay,

Meni ishq beqaror agar qilsa ne qilay.

(Bobur)

Me-ni-ish-q dil-fi-go-r a-gar-qil-sa ne-qi-lay,  
 V – – V – V – V – – V – V –  
 Me-ni-ish-q be-qa-ro-r a-gar-qi-lsa ne-qi-lay.  
 V – – V – V – V – – V – V –  
 Ma-fo-iy-lu fo-i-lo-tu Ma-fo-iy-lu fo-i-lun

Shundan kelib chiqqanda makfuf, aruz va zarb maHzuf. Vaznning to'liq ifodasi: «Muzori'i musammani makfufi maHzuf».

➤ Maf'-u-lu Q fo-i-lo-tu Q ma-fo-iy-lu Q fo-i-lun

(– – V – V – V V – – V – V –). Bu vaznda birinchi rukn Maf'-u-lu yuqorida ko'rganimizdek, «ma-fo-iy-lun» aslining «xarb» - vayron qilish ziHofiga uchrashi, ikkinchi va uchinchi ruknlar fo-i-lo-tu va ma-fo-iy-lu «ma-fo-iy-lun» va «fo-i-lo-tun» asllarining «kaff»-qaytarish o'zgarishiga uchrashi, oxirgi rukn fo-i-lun esa «fo-i-lo-tun» aslining «Hazf» - tashlash o'zgarishiga uchrashidan Hosil

bo'lgan. Vazn ifodasi ana shu ketma-ket o'zgarishlardan kelib chiqilib axrab, makfuf, maHzuf birligida «Muzori'i musammani axrabi makfufi maHzuf» tarzida ifoda etiladi.

Keltursa yuz baloni o' shal bevafo manga,  
Kelsun agar yuzimni evursam balo manga.

(Bobur)

Kel-tur-sa	yuz-ba-lo-ni	o'-shal-be-va	fo-ma-nga,
- - V	- V - V	V - - V	- V -
Kel-sun-a	gar-yu-zim-ni	e-vur-sam-ba	lo-ma-nga.
- - V	- V - V	V - - V	- V -
Maf'-u-lu	fo-i-lo-tu	ma-fo-iy-lu	fo-i-lun

Unutmaslik kerakki, deyarli barcha baHrlarda fo-i-lun, fa-i-lun, fa-i-lon, fa'-lun, fa'-lon ziHof ruknlarning o'rin almashib kelishi vazn o'zgarishi va rang-barangligiga xizmat qiladi. Shuning uchun ularning Hosil bo'lishi bilan boʻliq o'zgarishlarni to'liq o'rganish va yodda saqlash kerak bo'ladi. Bu xususiyat Muzori' baHri uchun Ham xosdir.

➤ Maf'-u-lu Q fo-i-lo-tu Q ma-fo-iy-lu Q fo-i-lon

( - - V - V - V V - - V - V ~ ). Bu vaznning oldingi ko'rganimizdan farqi «fo-i-lo-tun» aslining «Hazf» tarmoʻi maHzuf o'rnida uning «qasr» tarmoʻi ( Eslang! Fo-i-lo-tun. «qasr» (qisqa qi-sh) orqali «un» qismi tushiriladi, natijada fo-i-lot koladi va bu «fo-i-lon» ko'rinishida ifodaga tortilgan.) maqsur kelgan.

Yo'q manda faqr kuyida dunyoFa eHtiyoj,

Bo'lmas qanoat aHlida Har dunyoFa eHtiyoj.

(OgaHiy)

Yo'q-man-da	fa-qr-ku-yi	da-dun-yo-Fa	eH-ti-yoj,
- - V	- V - V	V - - V	- V ~
Bo'l-mas-qa	no-at-aH-li	da-Har-dun-yoFa	eH-ti-yoj.
- - V	- V - V	V - - V	- V ~
Maf'-u-lu	fo-i-lo-tu	ma-fo-iy-lu	fo-i-lon

Vazn ifodasi: axrab, makfuf, maqsur birligida «Muzori'i musammani axrabi makfufi maqsur» deb ifoda etiladi.

### Muzori' baHri ziHof ruknlarining jamlangan

ko'rinishi:

1. Maf' -u-lu Q fo-i-lo-tun.

«Ma-fo-iy-lun» dan «xarb» - fo-i-lun, fo-i-lun dan fo-i-lu q maf' -u-lu.

2. Ma-fo-iy-lu Q fo-i-lo-tu Q fo-i-lun

«Ma-fo-iy-lun» «kaff» - ma-fo-iy-lu,

«Fo-i-lo-tun» «kaff» - fo-i-lo-tu,

«Fo-i-lo-tun» «Hafz» - fo-i-lun.

3. Maf' -u-lu Q fo-i-lo-tu Q ma-fo-iy-lu Q fo-i-lun

Ma-foiy-lun» «xarb» maf' -u-lu,

«Fo-i-l-tun» «kaff» - fo-i-lo-tu,

«Ma-fo-iy-lun» «kaff» - ma-fo-iy-lu,

«Fo-i-lo-tun» «Hafz» - fo-i-lun.

4. Maf' -u-lu Q fo-i-lo-tu Q ma-fo-iy-lu Q fo-i-lon

Ma-fo-iy-lun» «xarb» maf' -u-lu,

«Fo-i-lo-tun» «kaff» - fo-i-lo-tu,

«Ma-fo-iy-lun» «kaff» - ma-fo-iy-lu,

«Fo-i-lo-tun» «qasr» - fo-i-lon.

Savollar:

1. Muzori' so'zi qanday ma'no anglatadi?
2. Muzori' baHri qaysi asl ruknlarning qanday takroriga asoslanadi?
3. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vaznni ko'rsatadi va ularning nechtasi dan ko'piroq foydalanib kelingan?
4. Muzori' baHrida ruknlar qanday ziHof o'zgarishlarga uchraydi?



## 9. MunsariH baHri (mus-taf' -i-lun Q maf' -u-lo-tu)

### ziHoflari

MunsariH (arabcha – oson.) baHri «mus-taf' -i-lun» va «maf' -u-lo-tu» asllarining birgalikda takrorlanishidan Hosil bo'ladi. Navoiy bu baHrning 11 ta vaznini, Bobur esa 34 ta vaznini ko'rsatadi. Anvar HojiaHmedovning fikrlariga qaraganda bu baHr Navoiygacha bo'lgan she'riyatimizda qo'llanmagan. Keyinchalik esa bu baHrning ikki o'lchovidan nisbatan ko'proq foydalanib kelingan.

➤ Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun. ( – V V – Q – V – ). Ushbu ruknlar MunsariH baHrini yuzaga keltiruvchi «mus-taf' -i-lun» va «maf' -u-lo-tu» asllarining o'zgarishga uchrashidan keyingi Hosil bo'lgan ziHof rukn Hisoblanadi. Muf-ta-i-lun «mus-taf' -i-lun»ning «tayy» – o'zgarishi (ikkinchi cho'ziq Hijo «taf' »ni qisqa Hijoga aylanishi)dan yuzaga kelgan «mus-ta-i-lun» o'rniga qabul qilingan rukn, fo-i-lun esa «maf' -u-lo-tu» aslining ikki o'zgarishga uchrashi – «kashf» - ochish, (oxirgi qisqa Hijo «tu» tushiriladi maf' -u-lo qoladi va o'ziga teng «maf' -u-lun» olingan va bu yana «tayy» - yiFish o'zgarishiga duch kelgan va ikkinchi cho'ziq Hijo qisqaga aylantirilgach Hosil bo'lgan maf' -i-lun o'ziga teng «fo-i-lun» bilan ifoda etilgan.) «tayy» - yiFishdan Hosil qilingan rukn. Matviyi mashkuf deyiladi. Quyidagi bayt shu ruknlarning takroriga asoslanadi:

Surma bilanmu ul oy ko'zni qaro aylamish,

Yo'qsa Xo'tan jayrani mushk ichinda aFnamish.

(Navoiy)

Sur-ma-bi-lan mu-u-loy ko'z-ni-qa-ro ay-la-mish,  
– V V – – V – – V V – – V –

Yo'q-sa-Xo'-tan jay-ra-ni mush-ki-chi-nda aF-na-mish.  
– V V – – V – – V V – – V –

Muf-ta-i-lun fo-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lun.

Vazn ifodasi: «MunsariHi musammani matviyi makshuf».

➤ Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun Q Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun.

( – V V – – V – – V V – – V – ). Ushbu vaznning birinchi va uchinchi ruknlari yuqorida ko'rganimiz «mus-taf'-i-lun» aslining matviy tarmoʻi «muf-ta-i-lun»ga, ikkinchi rukni «maf'-u-lo-tu» aslining matviyi makshuf tarmoʻi «fo-i-lun»ga teng. Oxirgi rukn «fo-i-lon» esa «maf'-u-lo-tu» aslining ikki o'zgarishga uchrashi – «vaqf» - to'xtatish, (oxirgi qisqa Hijodan «u» tushirilgan maf'-u-lot qolgan va o'ziga teng maf'-u-lon olingan va bu yana «tayy» - yiʼish o'zgarishiga duch kelgan va ikkinchi cho'ziq Hijo qisqaga aylantirilishi natijasi maf' i lon va bu fo i lon bilan ifodalanadi.) «tayy» - yiʼishdan Hosil qilingan rukn, bu oldingi rukn «fo-i-lun»dan o'ta cho'ziqligi bilan farq qiladi. Matviyi mavquf deyiladi.

Boda meni ayladi zuHdu riyodin xolos,

ZuHdu riyo yo'qki, ming ranju anodin xolos.

(Navoiy).

Bo-da-me-ni ay-la-di zuH-du-ri-yo din-xa-los,  
 – V V – – V – – V V – – V –  
 ZuH-du-ri-yo yo'q-ki,-ming ran-ju-a-no din-xa-los.  
 – V V – – V – – V V – – V –  
 Muf-ta-i-lun fo-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lon.

Vazn ifodasi: «MunsariHi musammani matviyi mavquf».

MunsariH baHri ziHof ruknlari jamlangan

ko'rinishi:

1. Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun.

«Mus-taf'-i-lun» dan «tayy» - mus-ta-i-lun q muf-ta-i-lun,

«Maf'-u-lo-tu» dan «kashf» va «tayy» - fo-i-lun . Matviyi mashkuf.

2. Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun Q Muf-ta-i-lun Q fo-i-lon.

«Mus-taf'-i-lun» dan «tayy» - mus-ta-i-lun q muf-ta-i-lun,

«Maf'-u-lo-tu» dan «kashf» va «tayy» - fo-i-lun,

«Maf'-u-lo-tu» dan «vaqf» - fo-i-lon.

Tayanch so'zlar:



1. ZuHd - dunyodan voz kech-q.    2. Riyo - yol fon.    3. Ranju ano – azob uqubat.

Savollar:

MunsariH so'zi qanday ma'no anglatadi?

2. MunsariH baHri qaysi asl ruknlarning qanday takroriga asoslanadi?

3. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vazni ko'rsatadi va ularning nechtasidan ko'piroq foydalanib kelingan?

4. MunsariH baHridagi matviyi mashkuf va matviyi mavquf ziHof qanday qilinadi?

10. Sari' baHri(2 ta mus-taf'-i-lunQ1 ta maf'-u-lo-tu) ziHoflari

Sari'(arabcha - tez) baHri « 2 ta mus-taf'-i-lun» va « 1 ta maf'-u-lo-tu» asllarining qo'shaloq takrorlanishidan Hosil bo'ladigan baHr Hisoblanadi. «Mezon ul-avzon» da bu baHrning 5ta, «Muxtasar» da 17 ta vazni ko'rsatiladi. Shulardan klassik she'riyatimizda ikkitasi ko'piroq qo'llanilib kelingan.

➤Muf-ta-i-lun Q Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun ( -V V- -VV- -V - )

Sari' baHrining ushbu ko'rinishi she'riyatimizda ancha keng qo'llanilgan. «Xamsa»larning birinchi dostoni, Haydar Xorazmiyning «Gulshan ul asror», Muqimiyning «Tanobchilar» asarlari shu vaznda yaratilgan. Bu vaznda ishtirok etayotgan Har uch rukn ziHoflar Hisoblanadi. Birinchi rukn muf-ta-i-lun «mus-taf'-i-lun» aslining «tayy» - yi'ish (mus-taf'-i-lun aslining ikkinchi cho'ziq Hijosi «taf'» qisqa Hijoga aylantiriladi, shunda «mus-taf'-i-lun» mus-ta-i-lun ga o'zgaradi va o'ziga teng Muf-ta-i-lun tarzida ifoda etiladi.) o'zgarishiga, fo-i-lun rukni esa «maf'-u-lo-tu» aslining matviyi mashkuf («mashkuf – ochish, bunda «maf'-u-lo-tu» dan oxirgi qisqa Hijo «tu» tushiriladi va maf'-u-lo koladi, bu o'ziga teng «maf'-u-lun» tarzida ifodalanadi. Buning Ham o'z navbatida «tayy» - yi'ish, ikkinchi cho'ziq Hijo «u» ni qiskarishidan «fo-i-lun» Hosil bulgan. Shuning uchun ikki o'zgarish bilan matviyi makshuf deyiladi.) o'zgarishiga uchrashidan Hosil bo'lgan.

Odamiy ersang, demagil odami,

Oniki, yo'q xalq famidin fami.

(Navoiy)

O-da-mi-er sang, de-ma-gil o-da-mi,  
- V V - - V V - - V -  
O-ni-ki, -yo'q xa-lq-fa-mi din-fa-mi.  
- V V - - V V - - V -  
Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lun.

Vazn ifodasi: «Sari'i musaddasi matviyi mashkuf».

Osh esalar o'rtada sarson ilik,  
Xo'ja chiroq yo'fi Hakimjon pilik.

(«Tanobchilar» dan)

Osh-e-sa-lar o'r-ta-da-sar son-i-lik,  
- V V - - V V - - V -  
Xo'-ja-chi-roq yo-fi-Ha-kim jon-pi-lik.  
- V V - - V V - - V -  
Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lun.

Vazn ifodasi: «Sari'i musaddasi matviyi mashkuf».

➤ Muf-ta-i-lun Q Muf-ta-i-lun Q fo-i-lon. (- VV - - VV - - V ~)

Bu vaznda Muf-ta-i-lun yuqorida ko'rganimiz «mus-taf'-i-lun» aslining «tayy» - yi'ish tarmo'fi, fo - i - lon esa «maf' - u - lo - tu» aslining «vaqf» - to'xtash va «tayy» - yi'ish («vaqf» - to'xtash, bunda «maf'-u-lo-tu» dan oxirgi qisqa Hijo «tu» tushiriladi va maf'-u-lo koladi, bundan oxirgi cho'ziq Hijo «lo» o'ta cho'ziq «lon»ga o'zgarigan, natijada maf'-u-lon» Hosil bo'lgan. Buning Ham o'z navbatida «tayy» - yi'ish, ikkinchi cho'ziq Hijo «u» ni qiskarishidan «fo-i-lon» Hosil bo'lgan. Shuning uchun bu Ham ikki o'zgarish bilan matviyi mavquf deyiladi.) o'zgarishlariga uchrashidan paydo bo'lgan.

Ishqni Har kimki qilur ixtiyor,  
Men kabi olamda bo'lur xoruzor.

(Bobur)

Ish-q-ni-Har kim-ki-qi-lur ix-ti-yor,  
- V V - - V V - - V ~  
Men-ka-bi-o lam-da-bo'-lur xo-ru-zor.  
- V V - - V V - - V ~

Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lon.

Vazn ifodasi: «Sari'i musaddasi matviyi mavquf».

Misollardan ko'rinadiki, ikkinchi vazn oldingisidan oxirgi ruknlar (aruz va zarb)ning o'ta cho'ziqligi bilan farqlanadi. Ana shu yaqinlik tufayli ular she'rdan yonma-yon qo'llanaveradi. Jumladan, «Hayrat ul-abror» dostoni shu vaznlar birligida yaratilgan bo'lib, dostondan olingan quyidagi baytlarning birinchisi matviyi mashkuf, ikkinchisi matviyi mavquf vaznidadir.

Bil munikim, sen da'ri bir bandasen,

Ko' pragidin ojizu afkandasen.

«Hayrat ul abror»dan

Bil-mu-ni-kim, sen-da-ri-bir ban-da-sen,  
- V V - - V V - - V -  
Ko'p-ra-gi-din o-ji-zu-af kan-da-sen.  
- V V - - V V - - V -

Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lun.

Ermas alar tufro'ru sen nuri pok,

Xilqat alar'au sanga – tiyra xok.

«Hayrat ul abror»dan

Er-ma-sa-lar tuf-ro-ru-sen nu-ri-pok,  
- V V - - V V - - V ~  
Xil-qa-ta-lar 'a-u-sa-nga – tiy-ra-xok.  
- V V - - V V - - V ~

Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun fo-i-lon.

Masnaviy shaklida yozilgan dostonlarda ushbu vaznlar turlicha, aytaylik 1,2,4 misralar ularning birida, 3 – misrasi ikkinchisida yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Sari' baHri ziHof ruknlari jamlangan

ko'rinishi:

1. Muf-ta-i-lun Q Muf-ta-i-lun Q fo-i-lun.

«Mus-taf' -i-lun» dan «tayy» - mus-ta-i-lun q muf-ta-i-lun,

«Maf' -u-lo-tu» dan «kashf» - maf' -u-lo q maf' -u-lun,  
Maf' -u-lun dan «tayy» - maf' -i-lun q fo-i-lun.

Matviyi mashkuf.

2. Muf-ta-i-lun Q Muf-ta-i-lun Q fo-i-lon.

«Mus-taf' -i-lun» dan «tayy» - mus-ta-i-lun q Muf-ta-i-lun,  
«Maf' -u-lo-tu» dan «vaqf» va «tayy» - fo-i-lon.

Matviyi mavquf.

### Savollar:

1. Sari' so'zi qanday ma'no anglatadi?
3. Sari' baHri qaysi asl ruknlarning qanday takroriga asoslanadi?
3. Navoiy va Bobur ushbu baHr bilan bo'liq nechta vazni ko'rsatadi va ularning nechtasidan ko'piroq foydalanib kelingan?
4. Sari' baHridagi ziHof o'zgarishlar matviyi mashkuf va matviyi mavquf qanday farqlanadi. Ularning Har ikkisi bir she'rda qo'llanilishi mumkinmi?
5. Ushbu vaznlar birligida yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?

Aruz vaznidagi vazn Hosil qiluvchi ziHof o'zgarishlarning she'riyatimizda ko'p uchraydigan ko'rinishlari (yodda saqlashga qulay bo'lishi nazarda tutildi)

### T A R T I B I:

- |                                       |   |
|---------------------------------------|---|
| 1. «Xarm» (burnini) dan AHram.        | 10. «Qat'» (kesish) dan Maqtu'.         |
| 2. «Shatar» (aybli q-ish) dan Ashtar. | 11. «Tayy» (yifish) dan Matviy          |
| 3. «Xarb» (vayron q-sh) dan Axrab.    | 12. «Taqf» (to'xtatish) dan Mavquf.     |
| 4. «Xatm» (Tish.tag.sin) dan Axtam.   | 13. «Muzol» (etakni qo'yish) dan Muzol. |
| 5. «Salm» (buzish) dan Aslam.         | 14. «Hazf» (tashlash) dan MaHzuf.       |
| 6. «Saram» (old.tish.sind) dan Asram. | 15. «Xabn» (qisqar-sh) dan Maxbun.      |

7. «Jabb» (bichish) dan Ajabb. 16 «Qasr» (qisqa qi-sh) dan Maqsur.  
 8. «Zalal» (son.go' -z.q-sh) dan Azzal. 17. «Kaff» (qaytarish) dan Makfuf.  
 9. «Shakl» (tushov-sh) dan Mashkul. 18.«TasbiF» (to'ldirish) dan MusabbaF  
 19. «qasr» va «xabn» dan Maxbuni maqsur.  
 20. «Hazf» va «xabn» dan Maxbuni maHzuf.  
 21. «tasbiF» va «xabn» dan Maxbuni musabbaF.  
 22. «qat' » va «tasbiF» dan Maqtu'i musabbaF.  
 23. «kashf» va «tayy» dan Matviyi mashkuf  
 24. «xabn» va «izola» dan Maxbuni muzol.



### Mavzu: Ruboiy vaznlari.

Mumtoz she'riyatimizda ruboiy faol janrlardan bo'lib, vazn jiHatidan boshqa janrlarga qaraganda juda murakkab xususiyatga ega. Shuning uchun ruboiylar vaznini alaHida o'rganish maqsadag muvofiq keladi. Sababi ruboiylar ko'p tarmoqli ruknlar ishtirokida yaratiladi, Hatto ruboiydagi to'rt misra to'rt xil vaznda kelishi mumkin. Ammo, barcha tarmoq ruknlar bitta Hazaj baHriga mansub «mafoiylun» asli va uning 9 tarmoFida yaratilib kelingan. Jami 24 o'lchovda bo'lib, 12 tadan ikki guruHga bo'linadi: maf'-u-lu rukni bilan

boshlanuvchi axrab, Hamda maf'-u-lun rukni bilan boshlanuvchi axram tarmoqlari bo'lib, shajara (daraxt) deb yuritiladi.

➤ Axrab shajarasi – «ma-fo-iy-lun» aslining «xarb» - vayron qilish (ma-fo-iy-lun dan birinchi Hijo tushirilgan va oxirgi cho'ziq Hijo qisqaga aylantirilgan qolgan fo-iy-lu ga teng maf'-u-lu olingan) dan Hosil bo'lgan maf'-u-lu bilay boshlangani uchun shu nom bilan yuritiladi. Bu tarmoqda misralardagi 1 – rukn: maf'-u-lu,

2 – rukn:	ma-fo-iy-lu, ma-fo-i-lun, lardan biriga, ma-fo-iy-lun,	
3 – rukn:	ma-fo-iy-lun, ma-fo-iy-lu, lardan biriga, maf'-u-lun, maf'-u-lu	
4 – rukn:	fa', fo', fa-al, lardan biriga teng keladi. fa-ul	

Masalan, misralarda bu ruknlar quyidagicha kelishi mumkin:

Maf'-u-lu	ma-fo-iy-lun	maf'-u-lun	fa'
Maf'-u-lu	ma-fo-iy-lu	ma-fo-iy-lun	fa-al
Maf'-u-lu	ma-fo-iy-lun	maf'-u-lu,	fa-ul
Maf'-u-lu	ma-fo-i-lun	ma-fo-iy-lun	fo'

Navoiy qalamiga mansub quyidagi ruboiy keltirganimiz mana shu vaznga aynan mos keladi.

Ey-sen-di	no'-lub-baF-rim	Ham-ko'k-sum	doF,
- - V	V - - -	- - -	~
Maf'-u-lu	ma-fo-iy-lun	maf'-u-lun,	fo'
Ko'ng-lum-o'	tu-ul-o't-FA	to'-kub-ash-kim	yoF.
- - V	V - - V	V - - -	~
Maf'-u-lu	ma-fo-iy-lu	ma-fo-iy-lun	fo'
Tan-o'l-sa	FA-ming-ich-ra	jo-ning-FA	fi-do,
- - V	V - - V	V - V	V ~
Maf'-u-lu	ma-fo-iy-lun	maf'-u-lu,	fa-ul
Jon-kuy-sa	mu-Hab-ba-ting	da-sen-bo'l-Fil	soF
- - V	V - V -	V - - -	~

Maf' -u-lu ma-fo-i-lun ma-fo-iy-lun fo'

Ushbu ruboiy maf' ulu – axrab (5ta), mafoiylun – solim (4ta), maf' ulun – axram (1ta), mafoiylu – makfuf (1ta), mafoilun – maqbul (1ta), fo' – azal (3ta), faul – axtam (1ta)dan iborat asl va tarmoq ruknlar ishtirokida yaratilgan.

Hazaji musammani axrabi solimi axrami azall,

Hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall,

Hazaji musammani axrabi solimi axtam,

Hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.

Vazn ifodasi: Hazaji musammani axrabi axrami makfufi maqbuzi solimi axtami azall.

➤Axram tarmoqi – «mafoiylun» aslining «axram» burnini kesish (ma-fo-iy-lun dan birinchi Hijo tushirilgan va qolgan fo-iy-lun ga teng maf' -u-lun olingan) dan Hosil bo'lgan maf' -u-lun bilan boshlangani uchun shu nom bilan yuritiladi. Bu tarmoqda 1 – rukn: Maf' ulun,

Maf' ulu,  
2 – rukn: Foilun,  
Maf' ulun lardan biriga.  
Mafoiylun,

3 – rukn: Mafoiylu,  
Maf' ulun, lardan biriga.  
Maf' ulu,

fa',  
fo',  
4 – rukn: fa-al, lardan biriga teng keladi.  
fa-ul

Kel-gil-kim, bir-qat-la u-zo-ring-ni ko'-ray,  
- - - - - V V - - V V ~  
Maf' -u-lun maf' -u-lu ma-fo-iy-lu fa-ul

Kim,-Haj-ring ko'p-ur-di bu-ko'k-sim-ga o'q.  
- - - - - V V - - - ~  
Maf' -u-lun maf' -u-lu ma-fo-iy-lun fo'

Ey-maH-vash    o't-gay-bu    sar-kash-lik    Ham,  
 -       -       -       -       -       -       -  
 Maf'-u-lun    maf'-u-lun    maf'-u-lun    fa'  
  
 RaH-may-lab    bu-qul-~~fa~~    ja-fo-ni-qil    kam.  
 -       -       -       -       -       -       -  
 Maf'-u-lun    maf'-u-lun    ma-fo-iy-lun    fa'

Bu ruboiyda maf'ulun – axram (7ta), maf'ulu – axrab (2ta), mafoiylun – solim (2ta), mafoiylu – makfuf (1ta), fo' – azall (1ta), faul – axtam (1ta), fa' – abtar(2ta) dan iborat asl va tarmoq ruknlar ishtirok etgan. Misralarda ushbu ruknlardan qaysilari qatnashgan bo'lsa, vazn ifodasi shunga qarab belgilanadi. Masalan, birinchi misra axram, axrab, makfuf, axtam vaznli ruknlardan tashkil topgan.

- 1 – Hazaji musammani axrami axrabi makfufi axtam,
- 2 – Hazaji musammani axrami axrabi solimi azall,
- 3 – Hazaji musammani axrami abtar,
- 4 – Hazaji musammani axrami solimi abtar.

Vazn ifodasi: Hazaji musammani axrami axrabi makfufi solimi axtami azalli abtar.

Kurinadiki, ruboiylarning vaznini aniqlashda dastlab birinchi ruknga e'tiborni qaratish lozim. Chunki, birinchi rukn axrab (maf'ulu) yoki axram (maf'ulun)ga to'g'ri kelishiga qarab ruboiy qaysi shajaraga mansubligi aniqlanadi, so'ngra o'sha shajaraning vazn xususiyatlaridan kelib chiqilgan Holda aniqlash mumkin bo'ladi va oson kechadi.

Savollar:

1. Ruboiy qanday janr?
2. Vaznda ruboiy boshqa janrlardan qanday farqlanadi?
3. Ruboiy janri asosan qaysi baHrga xos qanday ruknning tarmoqlarida yaratilib kelingan?
4. Ruboiy janri vazniga xos «shajara» nimani anglatadi?



5. Ruboiylar «mafoiylun» aslining necha tarmoqida va nachta vaznda yaratilgan?
6. Ruboiylar nechtadan guruHIarga bo'linadi?
7. Axram va Axrab shajarasi deyilishi nimani anglatadi?



#### MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR.

1. «Hijo»larning klassik she'r o'lchovi – «aruz»da ritmik birlik sifatidagi ahamiyati, turlari va bo'finlardan farqli jiHatlarini bilib oling. Quyidagi baytni bo'fin va Hijolarga ajratib farqli jiHatlarini aniqlang.

Yorning vasli emas ozorsiz,

Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.

(Nodira)

Xoki poyi yaxshilar bo'l xok bo'lmasdan burun,

Bu qaro er bafri senga chok bo'lmasdan burun.

(Huvaydo)

2. «Juzv» aruzda nimani anglatadi. «Sabab», «Vatad», «Fosila» juzvlarining o'xshash va farqli jihatlari o'rganing. Quyidagi bayt vaznini ruknlarini juzv jihatidan tahlil qiling.

Ne baloli charx ekan ushbu dun manga Hajrdin vatan ayladi,  
Vatan ichra bor na tirikligim yana dardidin kafan ayladi.

(Uvaysiy)

3. «Fa-u-lun»ning «sal» (buzish) zixofi bilan o'zgartiring, «fa'-lun» ni xosil qiling va shu asosida quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Arzimni aydim bodi sabofa,  
Etkursa xolim ul dilrabo fa.

(Mashrab)

4. «Fa-u-lun» asidan «Hazf» (tashlash) usulida «fa-al» zixofini qanday xosil qilinishini aniqlang va shu asosida quyidagi bayt vaznini belgilang.

Labing sori tokim nazardur manga,  
Yosh o'rnida xunu jigardur mango

(Navoiy)

5. «Fa-u-lun» asidan «qasr» (qisqa qilish) usuli bilan «fa-u(v)l» zixof ko'rinish yasang va shu asosida quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Meni ishqdin man' etar soda shayx,  
Dema soda shayx, aytkim loda shayx.

(Navoiy)

6. «Fa-u-lun» asidan «saram» (old tishini sindirish) yo'li bilan «fa'-lu» zixofini yasang va tushintiring.

Ishq famidin asru xazinmen,  
Sabr komidin asru faminmen.

(Bobur)

7. Hazaj bahrini qanday Hosil bo'lishini bilib oling va quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Ajab majnun erurman dasht ila saxrofa si famamdur,

Dilim daryoyi nurdur mavj urib dunyo Fa si mamdur.

( Mashrab )

8. «Ma-fo-iy-lun»dan «Ma-fo-iy-lon» zixofi qanday yasalishini tushinib oling va shu asosida quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Qaro zulfing firoqida parishon ro'zgorim bor,  
Yuzingning ishtiyoqinda ne sabru ne qarorim bor.

( Bobur )

9. «Ma-fo-iy-lun» asidan «xarm» (burnini kesish) usulida xosil qilingan «maf'-u-lun» zixofini tushuntiring va shu asosida quyidagi bayt vaznini aniqlang.

MeHnatu alamlar Fa muftalo Uvaysiyman,  
Qayda dard eli bo'lsa oshno Uvaysiyman.

(Uvaysiy)

10.«Ma-fo-iy -un» asidan «xarb» (vayron qilish) yo'li bilan xosil qilinadigan «Maf'-u-lu» zixofi kanday bajariladi.

To yuzin tuda kurdum, bo'lmish manga kom uyqu,  
Lekin famidin bo'lmish ko'zimga Harom uyqu.

(Navoiy)

11. «Ma-fo-iy -un» asidan «Hafz» (tashtash) yo'li bilan xosil qilinadigan «faulun» zixofi qanday Hosil qilinishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Firoqing Fa meni soldi qaroqing,  
Na Hojat qiynasa emdi firoqing.

(Lutfiy)

12. «Ma-fo-iy-un» asidan «qasr» (qisqa qilish) yo'li bilan xosil qilinadigan «Ma – fo – iyl» zixofi qanday Hosil qilinishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Ajalning dastidan yuz dodu faryod,  
Ki, umrim Hosilin berdi barbod.

(Nodira)

13. Ramal baHrini qanday Hosil bo'lishini bilib oling va quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Bir pari men telbaki HusniFa moyil qilFudektur,  
Kuzum ichra er tutub, ko'nglimda manzil qilFudektur.

(Bobur)

14. «Fo-i-lo-tun» asdidan «xizf» (tashlash) yo'li Bilan «fo-i-lun» zixofini yasang va va shu asosida quyidagi bayt vaznini aniqlang.

Davlatiing boridadurlar barcha olam oshno,  
Qaytgach davlat jaxonda kam topilur oshno.

(Munis)

15. «Fo-i-lo-tun» aslidan «shakl» (tushovlash) usulida «failotu» zixofini yasang va izoxlang.

Kechalar emas falakni yoruF aylagan setora,  
Chiqar oHim otashidin necha sharora. (Furqat)

16. «Fo-i-lo-tun» aslidan «xabn» (qisqa qilish) usulida «fa-i-lo-tun» zixofini yasang va qanday atalishini ayting.

PaHlavon erdi menging yorimu bir sho'x Anisim,  
Biri uldiyu biri idti, Ishim bo'ldi taassuf.

(Navoiy)

17. «Fo-i-lo-tun» aslidan «qasr» (qisqa qilish) usulida «fo-i-lon» zixofini yasang va qanday atalishini ayting.

Kecha oydin, mavjli dengiz, kuy to'kar bedor sarv,  
Oy kelib sarv uzra qo'ndi, bo'ldi oyruksor sarv.

(E.VoHidov)

18. Rajaz baHrini qanday Hosil bo'lishini bilib oling va quyidagi baytlar vaznini aniqlang.

Bir kun meni ul qotile majnunshior o'lturFisi,

Usruk chiqib javlon urib devonavor o'lturFisi.

(Navoiy)

Bir tanga sotqay bir qurut,  
Insofi yo'q tarror ekan.

«Tanobchilar»dan

19. «Mus-taf' -i-lun» aslidan «tayy» zixofi Bilan o'zgarishga uchragan «muf-ta-i-lun» zixofini qanday yasalishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang, ifoda eting.

QoshiFa borFali ko'ngul o'ziga kelmadi netay,  
Yuzini ko'rgali ko'zum ko'ziga ilmadi netay.

(Bobur)

20. «Mus-taf' -i-lun» aslidan «xabn» zixofi Bilan o'zgarishga uchragan «ma-fo-i-lun» zixofini qanday yasalishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang va ifoda eting.

Ko'zdin to'kildi qon yoshim, men muftalo qayga boray,  
Raxm aylamas ul maxvashim men muftalo qayga boray.

(OgaHiy)

21. «Mus-taf' -i-lun» aslidan «izola» zixofi Bilan o'zgarishga uchragan mus-taf' -i-lun» zixofini qanday yasalishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang,ifoda eting.

Lutf aylab, ey payki sabo, Holimni sultonimFa ayt,  
Ya'niki, jonim dardini ishqida jononimFa ait.

(OgaHiy)

22. «Mus-taf' -i-lun» aslidan «tayy» va «xabn» zixofi Bilan o'zgarishga uchragan «ma-fo-i-lun» zixofini qanday yasalishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang,ifoda eting.

Ey begim, Ushbu yuz degul, shams bila qamarmudur?  
Ey begim, Ushbu so'z degul, shaHd bila shakarmudur?

(Atoiy)

23. «Mus-taf' -i-lun» aslidan «xabn» zixofi bilan o'zgarishga uchragan «mafo-i-lun» zixofini qanday yasalishini bilib oling va shu asosda quyidagi bayt vaznini aniqlang, ifoda eting.



Adabiyotlar:

1. Navoiy. «Mezon ul-avzon» Asarlar. 15 tomlik, F.Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1967 y.
2. Bobur. «Muxtasar» T. «Fan» 1978y.
3. HojiaHmedov.A. O'zbek aruzi luFati. «Sharq» nashriyoti. T. 1998 y.  
Maktabda aruz ilmini o'rganish. T. 1995 y  
Aruz nazariyasi asosdari. ToshDU nashriyoti 1982 y.
4. To'ychiev. U. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. T. «Fan» 1985 y.
5. Rustamov. A. Aruz Haqida suHbatlar. T. «Fan» 1972y  
Habibiy she'rlarining vazni Adabiy meros T. 1971 y 2-son.  
Navoiyning badiiy maHorati T. 1979 y.
6. A'zamov. A. Aruz. A.Navoiy nomidagi dav.kutubxonasi. T. 2006 y.
7. Fitrat. Aruz Haqida risola. T. «O'qituvchi», 1997 y.

8. Hasanov. S. Boburning «Aruz risolasi asari». T. «Fan» 1981 y.
9. Sultonov. I. Adabiyot nazariyasi. T. «O'qituvchi», 1980 y.
10. Boboev. T. Aruz vaznini o'rganish. T. 1991 y.  
She'r ilmi ta'limi. T. «O'qituvchi» 1996 y.
11. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik, 2-jild, T. «Fan», 1992 y.
12. Navoiyning nigoHi tushgan. T. 1986 yil.
13. Hayot vasfi. O'zbek adabiyoti bo'stoni. T. 1988 yil.




## MUNDARIJA

1. Kirish .....	3.
2. Aruz she'r o'lchovining muHim nazariy asoslari .....	5
3. Juzv va Hijolarning xarakter xususiyatlari .....	11
4. Ruknlar, ularning Hosil bo'lishi va turlari.....	17
5. BaHrlar, ularning Hosil bo'lishi va turlari.....	25
6. ZiHof va tarmoq ruknlar, ularning Hosil bo'lishi.....	41
7. O'zbek she'riyatida keng qo'llangan baHrlarning ziHof ko'rinishlari.....	83
8. Ruboiy vaznlari .....	84.
9. Savol va topshiriqlar .....	88
9. Adabiyotlar ruyxati.....	93.

∞\*∞





2500

L

83